

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK: 336.13+65.011.8(575.1)

ABDULLAEV SHOHRUX ANVAROVICH

**MAHALLIY BYUDJETLARNING XARAJATLARI SAMARADORLIGINI
OSHIRISHDA G'AZNACHILIK TIZIMINING AHAMIYATI OSHIRISH YO'LLARI**

5A230601- "Davlat moliyasini boshqarish"

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya**

Ilmiy rahbar:

Dots. Tuxliev B.K.

Toshkent – 2014

Magistrlik dissertatsiya ishi “Davlat moliyasi va soliqlar” kafedrasida dastlabki
himoyadan o’tgan.

_____ sonli bayonnoma «_____» _____ 2014yil.

Ilmiy rahbar: Tuxliev B.K
f.i.sh.

imzo sana

Magistr: Abdullaev Sh.A.
f.i.sh.

imzo sana

Himoyaga ruxsat etiladi _____

“Davlat moliyasi va soliqlar” kafedrası mudiri dots.Xudoyqulov S.K.

“_____”iyun 2014 yil.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I-bob. Davlat byudjetida mahalliy byudjetlar va ular xarajatlarining ilmiy-nazariy asoslari.....	9
1.1. Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirilishida mahalliy byudjetlarning ahamiyati.....	9
1.2. Mahalliy byudjetlar xarajatlarining o'ziga xos xususiyatlari....	21
1.3. Mahalliy byudjet xarajatlari ijrosini tashkil etishnon g'xoriy davlatlar tajribasi.....	33
Birinchi bob bo'yicha xulosalar.....	40
II-bob. Davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimi sharoitida mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining amaldagi holati tahlili.....	42
2.1. Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosida g'aznachilik tizimini joriy etish bosqichlari tahlili	42
2.2. Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosida g'aznachilik tizimi amaldagi holati tahlili	51
2.3. G'aznachilik tizimi sharoitida mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining amaldagi holatini tahlili.....	60
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.....	68
III-bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mahalliy byudjetlar xarajatlari samaradorligini oshirishda g'aznachilik tizimining ahamiyatini oshirish yo'llari.....	69
3.1. Mahalliy byudjetlar xarajatlari samarali ijrosini ta'minlashda g'aznachilik tizimini rivojlantirish istiqbollari.....	69
3.2. Mahalliy byudjetlarning xarajatlari samaradorligini oshirish yo'llaru	75
Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.....	79
Xulosa	81
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	85
Ilovalar.....	93

Kirish

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Mamlakatimizning ijtimoiy va iqtisodiy sohalarida izchil islohotlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash hisobiga yuqori o'sish sur'atlari ta'minlanmoqda. Ushbu keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish va pirovard natijada erishilayotgan natijalarni ta'minlashda mahalliy byudjetlarning o'rni va ahamiyati g'oyat yuqoridir.

Prezidentimiz I.Karimov mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida ta'kidlaganlaridek "Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8 foizga o'sdi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,8 foizga, qishloq xo'jaligi – 6,8 foizga, chakana savdo aylanmasi – 14,8 foizga oshdi. Inflyatsiya darajasi prognoz ko'rsatkichidan past bo'ldi va 6,8 foizni tashkil etdi.

Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan xarajatlar yuqori darajada saqlanib qoldi va umumiy xarajatlarning 59,3 foizini tashkil etdi.

...Ijtimoiy sohani rivojlantirish, ish joylarini shakllantirish va aholi bandligi, uy-joylar qurish va aholi punktlarini obodonlashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonlari va sog'liqni saqlash tizimini yanada isloh etish va takomillashtirish doimo e'tiborimiz markazida bo'lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi"¹.

Ayniqsa hududlarimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, 2014 yilda Respublikamizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning vazifalari hisoblanuvchi, kabi masalalarning kun tartibidagi dolzarb masala sifatida maydonga olib chiqilishi mahalliy davlat hokimiyati organlarining oldiga yangi qator vazifalarni qo'ymoqda.

Bu albatta ularning ixtiyorida shakllantiriladigan moliyaviy resurslarni takomillashtirishni va qolaversa, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining

¹2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Toshkent: Xalq so'zi gazetasi. 2014 yil.

byudjetini shakllantirish, xarajatlarni samarali ijrosini ta'minlashga yo'naltirilgan islohotlarni chuqurlashtirishni talab qilmoqda.

Keyingi yillarda byudjet-soliq tizimida amalga oshirilgan islohotlar milliy iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni vujudga keltirdi. Davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimini rivojlantirish davlat byudjeti xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirilishini ta'minlashda bosh omil bo'lmoqda. Hozirgi sharoitda mahalliy byudjetlar xarajatlarini boshqarish, uning maqsadli va manzilli sarflanishini ta'minlash bilan bog'liq bir qator kuzatilayotgan muammolar mahalliy byudjetlar xarajatlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlarni yanada chuqurlashtirishni va bunda g'aznachilik tizimining o'rnini yanada oshirishni talab qilmoqda. Bu o'z navbatida tanlangan ushbu magistrlik dissertatsiya ishi mavzusini bugungi kundagi dolzarb ahamiyat kasb etishini bildiradi.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Mazkur magistrlik dissertatsiya ishining tadqiqot o'bekti sifatida respublikamiz budjet tizimining asosiy bo'g'ini hisoblangan mahalliy byudjetlar, Chilonzor tumani mahalliy byudjeti xarajatlari hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti sifatida mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosida hamda g'aznachilik tizimini tashkil qilishda yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar maydonga chiqadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Dissertatsiya ishining tadqiqot maqsadi hududiy ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish sharoitida mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining g'aznachilik tizimini o'rni va ahamiyatini nazariy jihatlarini yoritish, amaldagi holatini kompleks tahlil qilish natijasida mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining g'aznachilik tizimining ahamiyatini yanada oshirishga qaratilgan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Ushbu magistrlik dissertatsiya ishining tadqiqot predmeti yalpi ichki mahsulot va milliy daromadni taqsimlanishi jarayonida mahalliy davlat hokimiyati ixtiyorida shakllantirilgan mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosida yozaga keladigan pul munosabatlari maydonga chiqadi.

Dissertatsiya ishida belgilangan ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalar** belgilab olindi:

- Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda mahalliy byudjetlar ahamiyatini nazariy yoritish;
- mahalliy byudjetlar xarajatlarini ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini, maqsadi va vazifalarini yoritish;
- mahalliy byudjetlar xarajatlari tarkibi va dinamikasini tahlil qilish;
- mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosida g'aznachilik tizimining tashkiliy elementlarini baholash;
- mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosi samaradorligini oshirishda g'aznachilik tizimini takomillashtirishga qaratilgan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Ushbu tadqiqot ishida asosan mahalliy byudjetlar ijrosi tizimining ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan. Mahalliy byudjetlar xarajatlarning tarkibi va dinamikasi yoritilgan. Ishda hozirgi hududlarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sharoitida mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining amaldagi holati samaradorligi baholangan. Chilonzor tumani misolidagi tahlillarga asoslangan holda mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosiga oid taklif va amaliy tavsiyalar asoslangan.

Tadqiqotning asosiy farazi sifatida ta'kidlash joizki, dissertatsiya ishidagi mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining g'aznachilik tizimini takomillashtirish xususidagi ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar xarajatlar samaradorligini oshirilishi orqali byudjet tizimining barqarorligini ta'minlash imkoniyatlari shakllantiriladi va hududlarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlar samarali realizatsiya qilinishi mumkin.

Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. Dissertatsiya ishini yozish jarayonida byudjet tizimi va xususan, mahalliy byudjetlarni shakllantirish va ularni boshqarishning ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan bir qator iqtisodchi olimlarning ilmiy, o'quv adabiyotlaridan foydalanildi.

Xususan xorijlik iqtisodchi olimlaridan A.M.Babich, A.M.Godin, L.A.Drobozina, S.I.Lushin, V.A.Slepov, L.N.Pavlova, G.B.Polyak, M.V.Romanovskiy, L.P. Pavlova va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida keng yoritilgan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlaridan A.V. Vahobov, T.S. Malikov, O.O. Olimjonov, N.X. Xaydarov, Yo.Sh. Fayzullaev, I.A. Azizova, Z.X. Srojiddinova, J.A.Qo'chqorov, B.K. Tuxliev, G.Qosimova, X.A. Qurbonov, T.Eshnazarov va boshqalar tomonidan chop etilgan ilmiy va o'quv adabiyotlarda O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi va xususan mahalliy byudjetlarning xarajatlarini samarali boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari yoritib berilgan².

Qosimova G. "G'aznachilik vaoliyatini tashkl etish" o'quv qo'llanmasida g'aznachilik tizimida byudjet ijrosining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan va byudjet ijrosi jarayonlarida g'aznachilikning roli, g'aznachilik organlariga yuklatilgan vazifalar va funktsiyalar hamda ushbu jarayonga avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalarini tatbiq etish masalalari ifoda etilgan.

T.Eshnazarovning "G'aznachilik tizimi munosabatlari" nomli kitoblarida O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimini joriy etish masalalari, g'aznachilik tizimi munosabatlari masalalari aksini topgan.

B.Tuxliev va boshq. "Davlat byudjeti" o'quv qo'llanmasida davlat byudjeti g'azna ijrosining ahamiyati, afzalliklari, g'aznalik sharoitida davlat byudjeti mablag'larini boshqarish xususiyatlari yoritilgan.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi. Magistrlik dissertatsiyasini yozishda O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligining byudjet tizimiga oid me'yoriy

²Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. -Toshkent: "Noshir", 2012 y.-712 b.; Fayзуллаев Ё.Ш., Азизова И.А., Бюджетни ўрта муддатли режалаштириш.- Тошкент, 2010 - 152 б.; Сројиддинова З.Х.Ўзбекистон Республикаси бюджет тизими: Дарслик . – Тошкент: infoCOM.UZ МЧЖ нашриёти, 2010. – 500 б.; Тухлиев Б.К., Қурбонов Х.А., Бауетдинов М.Ж., Бижанова М.Б. Давлат бюджети: Ўқув қўлланма – Т.: ТДИУ, 2010. - 199 б. Кучкаров Д. и др. Местные бюджеты через призмы проблем.// Экономическое обозрение. - Ташкент: 2004.- № 6 - 4 с.; Қосимова Г. Ғазначилик фаолиятини ташкил қилиш.-Тошкент: "IQTISOD-MOLIYA", 2005.- 268 б.; Эшназаров Т. Ғазначилик тизими муносабатлари. Монография.- Тошкент:"Фан" нашриёти, 2008.- 296 б.

hujjatlari asos qilib olindi. Dissertatsiya ishini yozish jarayonida guruhlash, taqqoslash, omilli tahlil, iqtisodiy tahlilning vertikal va gorizontal uslublaridan va statistik kuzatish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Ishning nazariy va amaliy ahamiyati shundaki, undagi ayrim holatlar alohida taklif va tavsiyalar darajasigacha tadqiq etilganki, ular mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining g'aznachilik tizimini yanada rivojlantirish orqali O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimini isloh qilish va rivojlantirishda amaliy yordam berishi mumkin.

Dissertatsiya materiallaridan oliy o'quv yurtlarida «Davlat byudjeti», «Davlat moliyasini boshqarish», «Byudjet-soliq siyosati yahlitligi» kabi fanlarning o'quv dasturlarini takomillashtirish va o'qitish jarayonida foydalanish mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Ushbu dissertatsiya ishining ilmiy jihatdan yangiligi islohotlarning hozirgi shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining g'aznachilik tizimining amaldagi holati ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan kompleks o'rganilib, mavjud muammolar aniqlanganligi hamda uni bartaraf qilish orqali mahalliy byudjetlar xarajatlari samaradorligini yanada oshirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Magistrlik dissertatsiya ishining ilmiy jihatdan yangiligi quyidagilarda yaqqol namoyon bo'ladi:

- iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning hozirgi shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda mahalliy byudjetlarning o'rni va ahamiyatini yoritib berildi va yangi vazifalar aniqlandi;
- davlat moliyasini isloh qilish sharoitida byudjet tizimidagi islohotlarda mahalliy byudjetlar xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirishning dolzarbligi isbotlandi;
- mahalliy byudjetlar xarajatlarini rejalashtirish va boshqarish tizimidagi mavjud muammolar aniqlandi va xarajatlar ijrosining g'aznachilik tizimini yanada rivojlantirish yo'nalishlari bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi;
- mahalliy byudjetlar moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga qaratilgan ilmiy takliflar berildi.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi. Dissertatsiya ishi kirish, 3 ta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar qismlaridan iborat.

Dissertatsiya ishining birinchi bobida davlat byudjeti va xususan, mahalliy byudjetlarning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni, mahalliy byudjetlar xarajatlarining maqsadi va vazifalarini nazariy va amaliy asoslari yoritib berilgan.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobida mahalliy byudjetlar xarajatlarining tarkibi va dinamikasi hamda xarajatlar ijrosining g'aznachilik tizimini amaldagi holati tahlil qilingan.

Dissertatsiya ishining uchinchi bobida mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining g'aznachilik tizimidagi mavjud muammolar yoritilgan. Shuningdek, mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining g'aznachilik tizimini yanada rivojlantirishga qaratilgan taklif va amaliy tavsiyalar asoslab berilgan.

I bob. Davlat byudjetida mahalliy byudjetlar va ular xarajatlarining ilmiy-nazariy asoslari

1.1. Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirilishida mahalliy byudjetlarning ahamiyati

Malum bir mamlakatning malum bir mahalliy hududining o'z funktsiyalari va vazifalarini bajarishi bilan bog'liq ravishda vujudga keladigan chiqimlari, xarajatlari mahalliy byudjet xarajatlari deyiladi. Bu chiqimlar davlatning markazlashtirilgan pul fondlari mablag'larini turli yo'nalishlar bo'yicha foydalanish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarini ifodalaydi.

Mahalliy byudjet xarajatlari umumiy moliyaviy kategoriya sifatida byudjetning ko'rinishlaridan biri bo'lib, unga tegishli bo'lgan umumiy xususiyatlarga egadir, ya'ni ular taqsimlash xarakteriga ega, ifodalanishning pul shakliga xos, pul fondlarining amal qilishi bilan bog'langan va davlat tomonidan tashkil qilinadi. Shu bilan birgalikda byudjet xarajatlari bir butunning o'ziga xos qismi bo'lganligi uchun ular davlatning markazlashtirilgan pul fondlari mablag'laridan foydalanish va tegishli fondlarni shakllantirish bilan bog'liqdir. Bu taqsimlash munosabatlarining moddiy-buyumlashgan shakli turli sohalarga yo'naltirilayotgan byudjet mablag'larining harakatidan iborat.

Mahalliy byudjet xarajatlarining iqtisodiy mohiyati uning turli-tuman ko'rinishlari (turlari) orqali namoyon bo'ladi. Xarajatlarning har bir turi esa o'zining miqdoriy va sifat xarakteristikasiga ega. Bunda ularning sifat xarakteristikasi voqelikning iqtisodiy tabiatini ifodalab, byudjet xarajatlarining mo'ljallanganligini, miqdoriy xarakteristikasi esa ularning o'lchamini (miqdorini, hajmini) aniqlashga imkon beradi.

Mahalliy byudjet xarajatlari chiqimlarning aniq turlari orqali namoyon bo'ladi. Byudjet xarajatlari konkret turlarining xilma-xilligi esa, o'z navbatida, quyidagi omillarning mavjudligi bilan belgilanadi:

- mahalliy hududning iqtisodiy tabiati va funktsiyalari;
- mahalliy hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi;

- byudjetning milliy iqtisodiyot bilan bog'langanligi;
- iqtisodiy munosabatlarning rivojlanganlik darajasi;
- byudjet mablag'larining namoyon bo'lish shakllari va h. k.

Bu omillarning qo'shilishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida har qanday mahalliy byudjet xarajatlarining u yoki bu tizimini vujudga keltiradi.

Mahalliy moliya - davlat moliya tizimining muhim tarmog'i hisoblanadi. Davlat byudjeti respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti hamda mahalliy byudjetlarni o'z ichiga oladi. Mahalliy byudjetlar O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining muhim va ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahalliy byudjetlarga e'tibor yanada kuchaymoqda. Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «beshinchi ustuvor yo'nalish - markaziy va yuqori davlat boshqaruv organi idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tuzilmalariga fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borishni ta'minlash»³ zarurdir.

Mahalliy byudjetlarning mavqeini yanada oshirish hukumatimizning byudjet siyosatini samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan muhim omil ekanligi shubhasizdir, bu borada ularni yanada qo'llab-quvvatlashga harakat qilinmoqda. Bu mahalliy byudjetlarning rejasini shakllantirish va mablag'larini xarajat qilish miqdori viloyat, tuman, shahar hokimiyat organlari tomonidan tasdiqlanadi. Mahalliy byudjetlar orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini moliyaviy mablag'lari bilan ta'minlab boriladi. Mahalliy byudjetlar O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti tuzilishining asosiy qismi sifatida o'zida 14 ta mustaqil byudjetni mujassamlashtiradi. Biz bilamizki, byudjet iqtisodiy ishlab chiqarish hosilasi, u nimani va qancha yaratsa shunga qarab shakllanadi. Uning mavjudligi iqtisodiy zarurat va buni ijtimoiy ne'matlarni takroran yaratilib turilishi yuzaga keltiradi. Byudjet iqtisodiyotga davlat tomonidan ta'sir etishning faol vositasi hisoblanadi. U iqtisodiyotni o'sishiga qayta ta'sir etganda, ishlab chiqarish resurslarini

³ Karimov I. A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. Xalq so'zi. 2002 yil 30 avgust

rivojlantirishni byudjetdan moliyalashtirish orqali yuz beradi. Makroiqtisodiyotdagi real aylanishda davlat o'z tovar va xizmatlari bilan ishtirok etsa, moliyaviy aylanishda byudjetdagi puli bilan ishtirok etadi. Oddiy qilib aytganda, mahalliy byudjet ishlab chiqarishning yakuniy natijalarini aholiga etkazishning asosiy kanallaridan biri hisoblanadi.

Mazkur byudjetlar orqali markazlashgan jamg'armalar aholining ayrim qatlamlari o'rtasida taqsimlanadi. Mahalliy byudjetlardan ishlab chiqarish sohasining tarmoqlari, birinchi navbatda, oziq-ovqat va mahalliy sanoat, kommunal xo'jalik va aholining turmush kechirishi uchun zurur bo'lgan aholiga xizmat ko'rsatish sohasi moliyalashtiriladi. O'zbekiston Respublikasining hokimiyat va boshqaruv, markaziy va mahalliy idoralari amalga oshiradigan moliyaviy faoliyat ular oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarga, berilgan vakolatlarga muvofiq turli shaklda amalga oshiriladi. Mahalliy hokimiyat idoralari hokimlar, xalq deputatlari kengashlari o'z vakolatlari doirasida mahalliy moliya faoliyatini amalga oshiradilar. Mahalliy davlat hokimiyat idoralarining moliyaviy faoliyati moliyaviy masalalar sohasidagi qarorlar, farmoyishlar chiqarish, tegishli byudjetlarni tasdiqlash va ijrosini ta'minlash, o'z hududidagi davlat idoralari, korxonalari, tashkilotlar, moliyaviy faoliyatini nazorat qilish, muvofiqlashtirish, tegishli ma'muriy- hududiy birlik ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlovchi tadbirlar ishlab chiqish, ularni moliyalashtirish, pul-kredit siyosatini amalga oshirish kabi shakllarda amalga oshadi. Moliyaviy faoliyati amalga oshiruvchi barcha davlat idoralari qanday darajada bo'lishidan, vakolatlari doirasidan qat'iy nazar mamlakat iqtisodiy va moliyaviy qudratini oshirish, iqtisodiy barqarorlikni va rivojlanishni ta'minlash, mahalliy moliyani mustahkamlash yo'lida harakat qiladi


O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 7-moddasida aytilishicha, O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidangina amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga va uning asosida chiqarilgan boshqa

qonunlarga muvofiq davlatning moliyaviy faoliyati uning hokimiyat, boshqaruv hamda mahalliy hokimiyat idoralari tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga va boshqa qonunlarga muvofiq davlat idoralari tomonidan mahalliy moliyani boshqarish davlat va jamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchi bir qator tamoyillarga, etakchi qoidalarga muvofiq ravishda olib borilishi lozim. Bu tamoyillar moliya, kredit, soliq va bank sohasidagi qonunlarda belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 2 sentyabrda «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunda mahalliy davlat hokimiyat idoralarining moliyaviy faoliyati asoslari belgilab quyilgan. Davlat idoralari tomonidan moliyaviy faoliyatning amalga oshirilishida quyidagi tamoyillarga amal qilinadi. Davlat moliya idoralari bilan o'zaro munosabatlar davomida barcha korxonalar, birlashmalar, fuqarolar ham qonunlarga qat'iy amal qilishlari lozim. Qonuniylik tamoyiliga amal qilish moliyaviy munosabatlar barqarorligini ta'minlash, davlat moliya faoliyatidan ko'zlangan maqsad va vazifalarning bajarilishiga erishish, oqibatda davlat moliyaviy va iqtisodiy qudratining, qolaversa, mustaqillikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Moliyaviy faoliyat turli darajadagi davlat hokimiyati va boshqaruv idoralari tomonidan amalga oshiriladi. Davlat moliyaviy faoliyatini amalga oshiruvchi idoralarning huquqiy holatlari va ularga yuklatilgan vazifalar ularga taalluqli qonunchilik hujjatlarida belgilab qo'yilgan. «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunda viloyat, tuman, shahar hokimlari tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy faoliyat bu sohada mahalliy idoralarga berilgan vakolatlar va ularning huquqiy holati belgilab qo'yilgan. Mahalliy davlat idoralari tarkibidagi Moliya boshqarmalari va moliya bo'limlarining huquqiy holatlari belgilangan tartibda ular to'g'risidagi tasdiqlangan nizomlarga ko'ra belgilanadi.

Mahalliy boshqaruv organlarining rolini oshirish bevosita ularni moliya-byudjet huquqlarini oshirishni, ularga yuklangan vazifalarni amalga oshirishda etarli mablag'lar bilan ta'minlashni talab etadi. Mamlakatimiz demokratik Davlat qurilishini o'z oldiga vazifa qilib quygan ekan, bunda mahalliy o'z-o'zini boshqarish muhim o'rin tutadi. Mahalliy boshqaruv organlarining rolni oshirish

bevosita ularni moliya-byudjet huquqlarini oshirishni, ularga yuklangan vazifalarni amalga oshirishda etarli mablag'lar bilan ta'minlashni talab etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov ma'ruzasida bayon qilingan talablardan kelib chiqqan holda, 2012 yil iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlari belgilandi, jumladan, «soliq-byudjet sohasida islohotlarni chuqurlashtirish, davlat xarajatlarini sarflash mexanizmini maqbo'llashtirgan holda ularni qisqartirish lozim bo'ladi. Respublikamizda qabul qilingan ijtimoiy dasturlarni, birinchi navbatda aholining ijtimoiy nochor tabaqalarini aniq tarzda qo'llab-quvvatlash, sog'lom avlodni tarbiyalash va boshqa dasturlarni ro'yobga chiqarish asosida aholi farovonligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosatning ta'sirchanligi va aniq tarzda qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishda»⁴ mahalliy byudjetlarni rolini yanada oshirish lozim. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahalliy byudjetlar mustaqil huquqiy tashkilot hisoblanadi. Mahalliy byudjet mablag'larining asosiy qismi ijtimoiy-madaniy tadbirlarga va aholini ijtimoiy himoyalash tadbirlariga yo'naltiriladi. Mahalliy byudjet mablag'larning egasi sifatida amaldagi me'yoriy xujjatlarga asoslanib, umumiy hajmi byudjet qonunchiligida belgilangan miqdorda pul mablag'larini ajratadi. Mahalliy byudjet xarajatlariga mablag'lar ajratish davlat hokimiyati, davlat boshqaruv organlari, moliya-kredit idoralari tizimi orqali tegishli mablag'larga ehtiyoj sezilgan paytdan (moliya yilidan) boshlab ularni sarf xarajat qilgunga qadar bo'lgan butun davr mobaynida yuz beradi va bunda mahalliy byudjet xarajatlari vujudga keladi.

⁴ Karimov I.A. Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi. 2013 yil 19 yanvar №13 (5687)- soni



1.1.1-rasm⁵. Mahalliy byudjetlarning vazifalari

Mahalliy byudjetlar ob'ektiv iqtisodiy kategoriya bo'lib, ikki tomonlama xususiyatga ega:

-U iqtisodiyot tarmoqlarini moliyaviy ta'minlashga qaratilgan xarajatlardan iborat.

- Bu xarajatlar korxonalarning daromadidan tashkil topadi.

Rivojlangan mamlakatlarda mahalliy byudjet mustaqil ravishda mahalliy soliqlar va yig'imlar hisobiga shakllantiriladi. Bizning respublikamizda ham mahalliy byudjet daromadlarini mahalliy soliqlar va yig'imlar tashkil etadi. Mahalliy byudjetlar umumdavlat iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda, birinchi navbatda, ijtimoiy infrastrukturani saqlash va rivojlantirishga davlat mablag'larini taqsimlashda alohida ahamiyatga ega. Mamlakat byudjetining tuzilishi birinchi navbatda davlat tuzilishiga bog'liq bo'ladi. Unitar tuzilishga ega bo'lgan mamlakatlarda byudjet tizimi ikki bosqichdan, davlat byudjeti va mahalliy byudjetlardan iborat. Federal tuzilishga ega bo'lgan mamlakatlarda byudjet tizimi uch bo'g'indan iborat. Mahalliy byudjetlar davlatning moliya tizimini asosiy

⁵ Qosimova G.A. Mahalliy byudjetlarni tuzish va ijrosini ta'minlash. O'quv qo'llanma. Toshkent. Moliya. 2007. 17-bet

tarkibiy qismini tashkil etadi. Mahalliy byudjetlar xarajatlarida asosiy o'rinni ijtimoiy-madaniy tadbirlar xarajatlari egallaydi.


Hammamizga ma'lumki, aholini ijtimoiy himoyalash masalasining ustuvorligi O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilish bozor iqtisodiyotiga o'tish dasturining eng ustuvor yo'nalish sifatida tan olindi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan bozor munosabatlariga o'tishning besh tamoyilidan biri - aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish hisoblanadi. Shu sababli mahalliy byudjetdan aholining kam ta'minlangan qatlamlariga to'lanayotgan ijtimoiy to'lovlar hajmi oshib bormoqda. Mahalliy moliya organlarining byudjet ijrosidan manfaatdorligini oshirish va shuning asosida byudjet xarajatlarini to'g'ri va oqilona tarzda sarflanishi va byudjet tushumlarining yangi manbalarini qidirib topishga rag'batlantirishni ta'minlashdir.

Bugungi kunda mahalliy byudjetning xarajatlarini ijro etishning xuquqiy asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 2004 y. O'zR DSQ 80 bet.
4. O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonuni
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi 414-sonli «Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi qarori
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 25 dekabrdagi 610-sonli «O'zbekiston Respublikasining 2005 yilgi Davlat byudjeti va asosiy makroiqtisodiy istiqbol ko'rsatkichlari to'g'risida»gi qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 27 dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2006 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi 244-son Qarori.

9. Davlat byudjetining g'azna ijrosi Qoidalari (AV 16.09.2009 y. 2007-son bilan ro'yxatga olingan Moliya vazirining 04.08.2009 y. 69-son Buyrug'i)

Yukoridagilarni quyidagi 1.1.2-rasmda yaqqol ko'rishimiz mumkin.



1.1.2-rasm⁶. Mahalliy byudjet xarajatlarini tashkil etishning me'yoriy-xuquqiy asoslari

O'zbekiston uchun tabiiy resurslar, sarmoyani jamg'arish bilan birga inson kapitaliga sarflangan mablag' aholini ijtimoiy himoya qilish, mutaxassislarning malakasini oshirish, sog'liqni saqlash, maorif, kasbni o'zgartirish, ilmiy

⁶ Manba: www.lex.uz saytidagi ma'lumotlar asosida tayyorlandi.

tadqiqotlarga sarmoyalar yo'naltirish iqtisodiy yuksalishning eng muhim manbai va asosi bo'lib hisoblanadi.

Bunda mamlakatimizdagi murakkab demografik vaziyat hisobga olinadi, aholi soni o'sishining yuqori sur'atlari va aholi tarkibida yoshlarning katta ulushini tashkil etishi byudjetdan ijtimoiy sohadagi muassasalarga mablag'lar sarflash ko'rsatkichiga ta'sir qiladi.

Shu munosabat bilan davlatimiz har yili ijtimoiy soha ehtiyojlari uchun ta'limning ustuvorligini ta'minlaydigan miqdorda mablag' ajratilishini kafolatlaydi.

Insonga munosib turmush va faoliyat sharoitlarini vujudga keltirishdan, vazifaning ijobiy hal etilishi aynan ijtimoiy-madaniy sohalar taraqqiyotiga bog'liqdir. Shuni nazarda tutgan holda, hozirgi kunda mamlakatimizda ijtimoiy soha xarajatlari asosan mahalliy byudjetlardan moliyaviy ta'minlanmoqda.


Ijtimoiy-madaniy tadbirlarni o'tkazish va byudjet tashkilotlarining alohida xarajatlarning belgilangan me'yorlarga asosan moliyalashtirish ijtimoiy-madaniy tadbir xarajatlari, avvalo, loyiha parametrlariga kiritiladi.

Aholini ijtimoiy himoyalash tadbirlarining loyiha parametrlarida kam ta'minlangan bolali oilalarga to'lanadigan nafaqalar va aholi uchun ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xizmatlar uchun farqni byudjetdan qoplash bilan ifodalanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar mablag'lari tasdiqlangan byudjet doirasida xarajat qilinadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar xarajatlari tasdiqlangan byudjetdan mablag'lar ajratish doirasida quyidagicha amalga oshiriladi(1.1.3-rasmga qarang).

Quyidagi 1.1.3-rasmdan kurinib turibdiki mahalliy byudjet xarajatlari mamlakatimizda olib borilayotgan byudjet xarajatlari avvalambor axolining birinchi extiyojlarini kondirishga qaratiladi, so'ngra esa ikkilamchi extiyojlarga sarf xarajatlar amalga oshiriladi. Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganidek, hayotimizni erkinlashtirish yo'nalishlarining yana bir muhim yo'li-markaziy va yuqori davlat boshqaruv idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi

tuzilmalariga, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borishni ta'minlashdir. Mamlakat byudjeti daromad qismining 56 foizi va xarajat qismining 52 foizini hududiy byudjetlar tashkil etmoqda. Agar barcha boshqaruv masalalari moliyaviy yo'l bilan hal etilishini nazarda tutadigan bo'lsak, mana shu raqamlar hududiy hokimiyat tuzilmalari vakolatlarini kengaytirish borasida qilingan ishlar salmog'ini yaqqol kursatib turibdi.




1.1.3-rasm⁷. Mahalliy byudjetlarda tasdiqlangan byudjetdan mablag' ajratish tartibi

Mahalliy byudjetlar orqali mahalliy hududlarni ij-timoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish moliyaviy manbalar bilan ta'minlab boriladi. Davlat byudjeti xarajatlarining tarkibida esa mahalliy byudjet xarajatlarining salmog'i oshib bormoqsa, ya'ni u 1991 yilda 48,2 foizdan, 2011 yilda 57,4 foizga etdi.

Respublikamizda qabul qilingan ijtimoiy dasturlarni, birinchi navbatda,, aholining kam ta'minlangan tabaqalarini aniq tarzda qo'llab-quvvatlash, sog'lom

⁷ Manba: O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi asosida talaba tomonidan sshakllantirildi

avlodni tarbiyalash, «Obod mahalla yili» va boshqa dasturlarni ro'yobga chiqarish asosida aholi farovonligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosatning ta'sirchanligi va aniq tarzda qo'llab-quvatlashni kuchaytirishda¹ mahalliy byudjetlarning ahamiyati kattaligini aytib o'tishimiz kerak.




1.1.4-rasm⁸. Mahalliy byudjet xarajatlari tarkibi.

Mahalliy byudjetlar xarajatlarining keyingi yillarda o'sib borishi ularning davlat byudjetidagi salmog'ini ham oshib borishiga olib kelgan, bo'larning sababini asosan 1995 yildan boshlab mahalliy byudjetlar tomonidan oldingi yillarda respublika byudjeti hisobidan moliyalashtirib kelingan ta'lim xarajatlari, ya'ni o'rta maxsus o'quv yurtlari xarajatlarini moliyalashtirilishini ortishi, davlat kapital ko'yilmalarining mahalliy byudjetlardagi hajmini ortib borishi hisobiga

⁸ Manba: O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi, 2013 yil 26 dekabr, 71-72 moddolari

hamda aholini ijtimoiy himoyalashga qaratilgan tadbirlar xarajatlarini sezilarli darajada o'rganiligi bilan izohlash o'rinlidir.



1.1.5-rasm⁹. Mahalliy byudjet xarajatlari tarkibi(maqsadiga ko'ra)

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlardan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda quyidagilarga mo'ljallangan xarajatlar moliyalashtiriladi.

⁹ Manba: O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi, 2013 yil 26 dekabr, 71-72 moddalari

Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki davrida ham, islohotlarning hozirgi bosqichida ham aholining daromadlarini hisobga olish va tibbiy xizmatga bo'lgan talabni qondirishga ijtimoiy himoyaning bir turi sifatida qarashimizga to'g'ri keladi. Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish va bu sohada faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarni o'z vaqtida va to'liq ma'naviy ta'minlash zarurdir. Mahalliy byudjet xarajatlari yo'naltirilgan sohasiga, vazifasiga qarab xam bir necha guruxga ajratish mumkin. Uni 1.1.4-rasmda ko'rishimiz mumkin.


Respublikamizda byudjet tizimida olib borilayotgan o'zgarishlarning markazida mahalliy byudjet daromadlarini oshirish, mahalliy byudjet imkoniyatlarini kengaytirish xamda mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan iqtisodiy-ijtimoiy soha xarajatlarini o'z vaktida moliyalashtirish masalalari turadi.

Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari o'z tarkibiga maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, fan, ijtimoiy ta'minot, aholi uchun ijtimoiy ahamiyat kasb etgan xizmatlar baholaridagi farqlarni byudjetdan qoplash va oilalarga ijtimoiy nafaqalarni oladi. Davlatning ijtimoiy funktsiyasini o'zida aks ettirib, bu guruhdagi byudjetning xarajatlari xalq ta'limi tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga, fan va madaniyatni moliyalashtirishga, aholining tibbiy xizmatga bo'lgan talabini (ehtiyojini) qondirishga, ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minotni amalga oshirishga keng yo'l ochib beradi.

1.2. Mahalliy byudjetlar xarajatlarining o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirayotgan davrda mahalliy byudjetlarning Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi roli yanada oshib bormoqda. Davlat byudjeti xarajatlari oxirgi yillarda o'sib borayapti. Xuddi shuningdek mahalliy byudjet xarajatlarining davlat byudjeti xarajatlaridagi salmog'iga nisbatan ko'proq oshayapti.

Buni quyidagi rasmdagi malumotda ko'rishimiz mumkin. (1.2.1-rasmga qarang).



1.2.1-rasm¹⁰. Mahalliy byudjetlarning davlat byudjetidagi salmog'i

Masalan, Davlat byudjeti xarajatlarida mahalliy byudjetlar salmog'i 2008 yilda 58,2 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2009 yilda 57,1, 2010 yilda 56,8, 2011 yilda 55,9 2012 yilda 54,2, 2013 yilda 53,9 foizni tashkil etmoqda.

Demak bu keltirilgan ma'lumotlardan shuni bilish mumkinki, mahalliy byudjetlar davlat byudjetida alohida o'rinni egallagan holda mavjud bo'lgan muammolarni echishga bevosita yordam beradi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng kamrovli islohotlar byudjet moliya sohasida xam mustaqillik yilaridan boshlab uzluksiz takomillashtirilib kelinmoqda. Shunday islohotlarning biri bo'lib mamlakatimiz byudjet kassa ijrosining G'aznachilik tizimiga o'tishi hisoblanadi. Byudjet ijrosining G'aznachilik tizimiga o'tishi moliya byudjet sohasida mamlakatimizda juda katta yutuklarga erishilib kelinmokda. Mahalliy byudjetlardan O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'risida"gi Qonuni bilan belgilangan xarajatlar amalga oshiriladi. Mahalliy byudjet xarajatlari tasdiqlangan byudjet asosida yagona g'azna hisobvarag'ida mavjud qoldiq doirasida amalga oshiriladi. G'azna ijrosi bilan qamrab olinmagan byudjetdan mablag' oluvchilarni moliyalashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan taqdim etilgan to'lov topshiriqnomalari "to'lov maqsadi"da xarajatlarning bo'limi, kichik bo'limi, bobi hamda qaysi oy uchun moliyalashtirilganligi ko'rsatiladi. G'azna ijrosi bilan


¹⁰ Manba : O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ma'lumotlari

qamrab olinmagan byudjetdan mablag' oluvchilar o'z qaramog'idagi muassasalarga pul mablag'larini o'tkazish uchun taqdim etgan to'lov topshiriqnomalari "to'lov maqsadi"da xarajatlarning bo'limi, kichik bo'limi, bobi hamda qaysi oy uchun moliyalashtirilganligini ko'rsatadi. G'azna ijrosi bilan qamrab olinmagan byudjetdan mablag' oluvchilarga mahalliy byudjetdan mablag'lar belgilangan limitdan ortiqcha yoki noto'g'ri o'tkazilgan hollarda, ushbu ortiqcha yoki noto'g'ri o'tkazilgan mablag'lar byudjet tashkilotining to'lov topshiriqnomasiga yoki O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan qo'yilgan inkasso topshiriqnomasiga asosan respublika byudjetiga qaytarilishi lozim. G'azna ijrosi bilan qamrab olinmagan byudjetdan mablag' oluvchilar tomonidan taqdim etilgan to'lov topshiriqnomalari ularning hisobvaraqlarida mablag'lar etarli bo'lgan hollarda bank tomonidan ijro uchun qabul qilinadi.

Mamlakatimizda byudjet ijrosinining g'aznachilik tizimi "Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2007 yil 28 fevraldagi PQ-594-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligining asosiy vazifalari, funktsiyalari, vakolatlari va javobgarligini belgilaydi. G'aznachilik o'zining hududiy bo'linmalari bilan birgalikda Davlat byudjetining g'azna ijrosini amalga oshiradigan maxsus vakolatli moliya organi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi tizimiga bevosita unga bo'ysunadigan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri G'aznachilik boshqarmalari hamda tumanlar (shaharlar) G'aznachilik bo'limlari kiradi. G'aznachilik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, mazkur Nizomga hamda o'z faoliyatiga tegishli bo'lgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga amal qiladi. G'aznachilik o'z faoliyatini davlat boshqaruvining boshqa organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari, boshqa tashkilotlar bilan o'zaro

hamkorlikda bevosita va o'zining hududiy bo'linmalari orqali amalga oshiradi. G'aznachilik faoliyatini moliyalashtirish respublika byudjeti mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi. G'aznachilik, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri G'aznachilik boshqarmalari hamda tumanlar (shaharlar) G'aznachilik bo'limlari O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi yozilgan muhrga ega bo'ladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri G'aznachilik boshqarmalari yuridik shaxslar hisoblanadi.

Quyidagi chizmada Mahalliy byudjetlarda G'aznachilik orqali xarajatlar ijrosining (to'loving) amalga oshirilishi ko'rsatilgan



1.2.2-rasm¹¹. Mahalliy byudjetlarda byudjet xarajatlari ijrosi ketma-ketligi

Byudjetdan mablag' oluvchilar moliya organlarida o'tkazilgan shartnomalar buyichz etkazib beriladigan tovarlar (ishlar xizmatlar) xarajatlarini hamda bo'nak to'lovlarni to'lash uchun ertangi kun to'loviga bir kun oldin etkazib, byudjetdan mablag' oluvchi va etkazib beruvchiga bitta bank muassasasi tomonidan xizmat ko'rsatilsa, to'rt nusxada, byudjetdan mablag' oluvchi va tovarlarni etkazib beruvchiga turli bank muassasalari tomonidan xizmat ko'rsatilsa, uch nusxada

¹¹ Davlat byudjetining g'azna ijrosi. Normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. T.: "KO'HI-NUR" MChJ., 2006 y.

o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan to'lov topshchiriknomalarini g'aznachilik boshqarmasiga taqdim etadi. Shartnoma tuzilgan paytdan boshlab kuchga kiradi va taraflar uchun majburiy bo'lib qoladi. Taraflar o'zlari tuzgan shartnomaning shartlarini ularning shartnoma tuzishidan oldin vujudga kelgan munosabatlariga nisbatan qo'llaniladi deb belgilab qo'yishga haqlidirlar. Qonunda yoki shartnomada shartnomaning amal qilish muddati tugashi taraflarning shartnoma bo'yicha majburiyatlari bekor bo'lishiga olib keladi, deb belgilanishi mumkin. Bunday shart yozib qo'yilmaganda taraflar majburiyatni bajarishining shartnomada belgilab qo'yilgan oxirgi muddatigacha amal qiladi, deb hisoblanadi. Shartnomaning amal qilish muddati tugashi taraflarni uni buzganlik uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi.

Quyidagilar G'aznachilikning mahalliy byudjetlar ijrosida asosiy vazifalari hisoblanadi:

Mahalliy byudjetining kassa ijrosi, jumladan tushadigan daromadlarni turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlash, byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi va Davlat byudjeti ijrosi to'g'risida hisobot tuzish;

Mahalliy byudjet mablag'larini yagona g'aznachilik hisob raqami, shuningdek tegishli byudjetlar daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi kassa uzilishlarining oldini olishni ta'minlaydigan hududiy g'aznachilik hisob raqamlarini joriy etish orqali boshqarish;

Maxxaliy byudjet tashkilotlarining tovarlar etkazib beruvchilar (ishlarni bajaruvchilar, xizmatlar ko'rsatuvchilar) bilan shartnomalarini, shuningdek Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan kapital qurilish bo'yicha buyurtmachilarning shartnomalari (keyingi o'rinlarda byudjet tashkilotlari va buyurtmachilar shartnomalari deb ataladi) xarajatlar smetasida ko'rsatilgan summalar va maqsadlarga qat'iy muvofiq ravishda tuzilishi ustidan qattiq nazorat o'rnatish asosida mazkur shartnomalarni majburiy ro'yxatdan o'tkazish tartibini joriy etish orqali byudjet tashkilotlarining maqsadga nomuvofiq, asossiz xarajatlarning oldini olish; byudjet tashkilotlarini, shu jumladan, mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan byudjet mablag'laridan foydalanishni

maqbo'llashtirish yuzasidan monitoring olib borish, bunda ular tomonidan tuzilayotgan shartnomalarning sifati ta'minlanishini, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo echimini nazarda tutish hamda qoidaga ko'ra, vositachilik xizmatlaridan voz kechish; davlat xaridlari bo'yicha axborot bazasini yaratish va doimiy ravishda yangilab borish, davlat xaridlarini amalga oshirishda narxni shakllantirish jarayonini nazorat qilish; xarajatlar smetasi va ro'yxatga olingan shartnomalarda nazarda tutilgan qat'iy summalar doirasida tovarlar etkazib beruvchilar (ishlarni bajaruvchilar, xizmatlar ko'rsatuvchilar)ning bevosita hisob raqamlariga byudjetdan mablag' oluvchilar nomidan va ularning topshirig'i bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish orqali to'lov intizomiga so'zsiz rioya etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash; Mahalliy byudjet g'azna ijrosining buxgalterlik hisobi va hisobotini yuritish, Mahalliy byudjet ijrosi haqida axborotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish, G'aznachilik tizimi o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

-Mahalliy byudjet tashkilotlari xodimlariga ish haqi va unga tenglashtirilgan boshqa to'lovlar, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq byudjet tashkilotlari tomonidan naqd pul mablag'lari bilan to'lanadigan boshqa to'lovlarni to'lash uchun G'aznachilikning bank hisob raqamlariga mablag'lar o'tkazadi;

Mahalliy byudjetda ular uchun mablag'lar nazarda tutilgan yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisob raqamlariga sudning qarori bo'yicha yagona g'aznachilik hisob raqamidan yoki G'aznachilikning boshqa hisob raqamlaridan mablag'lar o'tkazadi, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining noqonuniy xatti-harakatlari yoki harakatsizligi natijasida fuqarolarga yoki yuridik shaxslarga etkazilgan zararni qoplash uchun mablag'lar o'tkazadi;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga har kunlik asosida yagona g'aznachilik hisob raqamida va hududiy g'aznachilik hisob raqamlarida mablag'larning harakati to'g'risidagi axborotni elektron shaklda taqdim etadi, byudjetdan mablag' oluvchilarga ular uchun G'aznachilikda yoki uning hududiy bo'linmalarida ochilgan shaxsiy hisob raqamlaridan ko'chirmalar, ularning

xarajatlarini qoplashga byudjet mablag'lari o'tkazilganligini tasdiqlaydigan to'lov hujjatlari va boshqa hujjatlarni taqdim etadi, manbalar bo'yicha tegishli byudjetlar daromadlari tushumi hisobini yuritadi;

normativ-huquqiy hujjatlarni va metodologik materiallarni, shu jumladan, G'aznachilik hamda uning hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalarni maqbo'llashtirish, Davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi buxgalteriya hisobini va hisobotlarni takomillashtirish masalalari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni va metodologik materiallarni ishlab chiqishda qatnashadi;

G'aznachilik tuzilmasi va uning faoliyatini tashkil etish. G'aznachilik tuzilmasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi. G'aznachilikni lavozimiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining o'rinbosari hisoblanadigan boshliq boshqaradi. G'aznachilik boshlig'i O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishgan holda, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining taqdimiga ko'ra Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi. G'aznachilik boshlig'i o'rinbosarlari G'aznachilik boshlig'ining taqdimiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadilar. G'aznachilikning hududiy bo'linmalari boshliqlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan tartibda G'aznachilik boshlig'i taqdimiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi. G'aznachilikning hududiy bo'linmalari to'g'risidagi Nizomlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziri tomonidan tasdiqlanadi. G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalari yagona markazlashtirilgan tizimni tashkil qiladi hamda quyi boshliqlarning yuqori boshliqlarga va O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziriga bo'ysunishi va hisobot berishi asosida faoliyat ko'rsatadi. G'aznachilik o'ziga berilgan vakolatlarga muvofiq o'z hududiy bo'linmalari faoliyati ustidan tezkor boshqaruvni va nazoratni amalga oshiradi.

Mahalliy byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha yuridik va moliyaviy majburiyatlarning qabul qilinishi, shuningdek byudjetdan tashqari mablag'larning kassa xarajatlari kelib tushgan byudjetdan tashqari

mablag'lar doirasida amalga oshiriladi va byudjet mablag'lari kabi bir xil tartibda rasmiylashtiriladi. O'tgan yil uchun Davlat byudjetining g'azna ijrosi amalga oshiriladigan moliya yiliga qo'shimcha davr keyingi yilning yanvar oyi hisoblanadi. Qo'shimcha davrda moliya organlari, g'aznachilik bo'linmalari, shuningdek byudjetdan mablag' oluvchilar tomonidan hisobot yili uchun Davlat byudjetining ijrosi bo'yicha quyidagi operatsiyalar amalga oshiriladi, jumladan:

- byudjetlararo hisob-kitoblarni tartibga solish;

- byudjetdan mablag' oluvchilarning o'tgan yil uchun kreditorlik qarzlari to'lash;

- iqtisod qilingan mablag'lar summasini byudjet tashkilotlarining rivojlantirish jamg'armalariga o'tkazish;

- mahalliy byudjet ijrosi bo'yicha boshqa operatsiyalar.

- mahalliy byudjetdan mablag' oluvchilarning kommunal xizmatlari bo'yicha o'tuvchi kreditorlik qarzlari to'lash, shu bilan birgalikda ular bo'yicha shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish, o'tgan moliya yili limitlari doirasida qabul qilingan moliyaviy majburiyatlar bo'yicha (dekabr oyi uchun o'tuvchi qarzlardan tashqari) to'lovlar qo'shimcha davrda o'tgan moliya yilining xarajatlar smetasida ajratilgan byudjet mablag'lari qoldiqlari doirasida, xarajatlar smetasining kreditorlik qarzi mavjud bo'lgan moddasida o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi. Byudjet tashkilotlari tomonidan mazkur modda bo'yicha kreditorlik qarzi qo'shimcha davrda o'tgan yilning xarajatlar smetasida ajratilgan byudjet mablag'lari qoldiqlari hisobidan to'lab berilmaganda va mablag'lar Byudjet tashkilotining rivojlantirish jamg'armasiga o'tkazilgan taqdirda, kreditorlik qarzni to'lash, qo'shimcha davr tugaganidan keyin, Byudjet tashkilotining rivojlantirish jamg'armasi va (yoki) boshqa mavjud byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga amalga oshiriladi. Byudjet tashkilotining rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari yoki boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar etarli bo'lmaganda yoki umuman mavjud bo'lmagan hollarda, o'tgan yilning kreditorlik qarzlari moliya organining byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari va boshqa byudjetdan tashqari mablag'lari yo'qligini tasdiqlovchi xulosasi, shuningdek kreditorlik

qarzini (byudjet tashkilotlari tomonidan o'rnatilgan tartibda taqdim qilingan tasdiqlangan smetalar va kreditorlik qarzlarining kelib chiqishi bo'yicha tegishli hisob-kitoblar va tushuntirishlar asosida) to'lash uchun zarur bo'lgan mablag'lar joriy moliya yilining xarajatlar smetasida nazarda tutilganligi to'g'risida moliya organi tomonidan g'aznachilik bo'linmasi xabardor qilingan taqdirda, joriy moliya yili xarajatlar smetalarida (vaqtinchalik xarajatlar smetalarini hisobga olgan holda) nazarda tutilgan mablag'lar hisobidan to'lab berilishi mumkin. O'tgan yilning kreditorlik qarzlarini to'lab berish uchun byudjet tashkilotlari tomonidan ularga xizmat ko'rsatuvchi g'aznachilik bo'linmalariga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi: kreditorlik qarzi yuzaga kelgan kommunal xizmatlari ko'rsatish bo'yicha o'tgan moliya yilining shartnomalari nusxasi; o'tgan yil yakuni bo'yicha byudjetdan mablag' oluvchi va mahsulot etkazib beruvchi o'rtasida tuzilgan solishtirma dalolatnoma (qo'shimcha davrda amalga oshirilgan hisob-kitoblar va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan to'langan kreditorlik qarzlarini hisobga olgan holda). O'tgan yilning dekabr oyi uchun kreditorlik qarzi joriy moliya yili xarajatlar smetasida (vaqtinchalik xarajatlar smetalarini hisobga olgan holda) nazarda tutilgan ajratilgan byudjet mablag'lari hisobidan to'lab beriladi. Mahalliy byudjetdan mablag' oluvchilarning kommunal xizmatlar bo'yicha o'tuvchi kreditorlik qarzini to'lash, shu bilan birgalikda ular bo'yicha shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish, o'tgan moliya yili limitlaridan oshiqcha qabul qilingan moliyaviy majburiyatlar bo'yicha to'lov o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi. Byudjetdan mablag' oluvchilar tomonidan rejali ajratilgan byudjet mablag'larining tegishli moddalaridan ortiqcha miqdorda moliyaviy majburiyatlar qabul qilinishi natijasida o'tgan yilning xarajatlar smetasi mablag'lari hisobidan kreditorlik qarzlarini to'lab berish imkoniyati bo'lmagan hollarda, kreditorlik qarzlarini qoplash qo'shimcha davr tugaganidan so'ng, quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Birinchi navbatda, Byudjet tashkilotining rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari va (yoki) boshqa mavjud byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan o'rnatilgan tartibda;

Mahalliy byudjet tashkilotining rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari yoki boshqa mavjud byudjetdan tashqari mablag'lari etarli bo'lmaganda yoki umuman

mavjud bo'lmagan taqdirda, joriy moliya yili xarajatlar smetasi hisobidan (vaqtinchalik xarajatlar smetalarini hisobga olgan holda), moliya organining byudjet tashkilotining rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari va boshqa byudjetdan tashqari mablag'lari yo'qligini tasdiqlovchi xulosasi, shuningdek kreditorlik qarzini (byudjet tashkilotlari tomonidan o'rnatilgan tartibda taqdim qilingan tasdiqlangan smetalar va kreditorlik qarzlari kelib chiqishi bo'yicha tegishli hisob-kitoblar va tushuntirishlar asosida) to'lash uchun zarur bo'lgan mablag'lar joriy yilning xarajatlar smetasida nazarda tutilganligi to'g'risida moliya organi tomonidan g'aznachilik bo'linmasi xabardor qilingan taqdirda to'lab berilishi mumkin. O'tgan yilning kreditorlik qarzlari to'lab berish uchun byudjet tashkilotlari tomonidan ularga xizmat ko'rsatuvchi g'aznachilik bo'linmalariga quyidagi hujjatlar taqdim qilinadi: O'tgan yilda qabul qilingan va joriy yilda qabul qilinadigan etkazib berish bo'yicha majburiyatlarni alohida ko'rsatgan holda kommunal xizmatlar ko'rsatish bo'yicha shartnomalar;

O'tgan yil yakuni bo'yicha byudjetdan mablag' oluvchi va mahsulot etkazib beruvchi o'rtasida tuzilgan solishtirma dalolatnoma (qo'shimcha davrda amalga oshirilgan hisob-kitoblar va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan to'langan kreditorlik qarzlarni hisobga olgan holda). To'lab berilmagan kreditorlik qarzi mavjud bo'lganda, joriy moliya yilida ajratilgan byudjet mablag'larining bir qismi kreditorlik qarzini to'lab berish uchun zaxira qilib qo'yilishi lozim. Bunda, byudjetdan mablag' oluvchi tomonidan joriy moliya yili xarajatlar smetasidagi tegishli moddalar bo'yicha yuridik majburiyatlarni qabul qilish, o'tgan yilning kreditorlik qarzini to'lashga yo'naltiriladigan mablag'lar miqdoriga kamaytirilgan byudjet ajratmalari doirasida, zaxira qilingan mablag'larni o'tgan yilning kreditorlik qarzini qoplashga majburiy yo'naltirish orqali amalga oshiriladi. G'aznachilik bo'linmalari o'tgan yilning xarajatlar smetasida nazarda tutilgan rejali ajratilgan byudjet mablag'lari summalaridan qabul qilingan moliyaviy majburiyatlar summolari oshib ketgan hollarda, bu haqda Moliya vazirligi Nazorat-taftish bosh boshqarmasining tegishli bo'linmalariga choralarni ko'rish uchun ma'lumot beradi. Xarajatlar smetasida (vaqtinchalik xarajatlar smetasida)

rejalashtirilgan mablag'lar etarli yoki mavjud bo'lmaganda yoki rejalashtirilgan mablag'lar o'tgan yilgi majburiyatlar bilan band qilingan taqdirda, moliya organi o'z vakolati doirasida, yil davomida kreditorlik qarzini to'lab berish uchun qo'shimcha mablag' izlash bo'yicha choralarni ko'radi. Byudjetdan mablag' oluvchilarning tovar (ish, xizmat)lar etkazib berish uchun boshqa shartnomalari bo'yicha o'tgan moliya yilining kreditorlik qarzlarning qoplanishi qat'iy ravishda xarajatlar smetasida nazarda tutilgan byudjetdan ajratilgan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi. Keyingi moliya yiliga o'tadigan kreditorlik qarzlari mavjud bo'lgan byudjetdan mablag' oluvchilar ularga xizmat ko'rsatuvchi g'aznachilik bo'linmalariga qo'shimcha davrda operatsiyalar amalga oshirilguncha (ya'ni 1 yanvar holatiga) va qo'shimcha davrda operatsiyalar amalga oshirilgandan keyingi holatga (ya'ni 1 fevral holatiga) mahsulot etkazib beruvchilar bilan tuzilgan solishtirma dalolatnomalarni taqdim etadilar. Byudjetdan mablag' oluvchilar tomonidan o'tgan yil hisobidan moliya yiliga qo'shimcha davrda amalga oshiriladigan xarajatlar bo'yicha to'lov topshiriqnomalarni to'ldirishda, ularning to'lov maqsadida, majburiy tartibda, malum bir yil uchun kreditorlik qarzni qoplash» yozuvi yoziladi. G'aznachilik ijrosiga o'tgan byudjetdan mablag' oluvchilar o'tgan yil uchun to'lov topshiriqnomalarni g'aznachilik bo'linmalariga moliya yiliga qo'shimcha davr tugaguniga qadar 5 ish kuni qolgandan kechikmasdan taqdim etishlari shart. Moliya yili yakunida byudjet mablag'larining erkin qoldiqlari g'azna hisobvaraqlarda mavjud bo'lgan quyidagi byudjetdan tashqari mablag'lardan tashqari, ya'ni byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari, ota-onalarning maktabgacha va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida bolalarni saqlash uchun to'lovlari, shuningdek bolalarni musiqa va san'at maktablarida o'qitish uchun to'lovlar, ishchilardan o'zlarining ish joylarida ovqatlanish uchun hisob-kitoblardan tushumlar (bolalarning maktabgacha ta'lim muassasalari, internatlari va boshqalarda), shuningdek moliya yiliga qo'shimcha davrda kreditorlik qarzlarni qoplash uchun yo'naltirilgan operatsiyalarni amalga oshirishdan tashqari, belgilangan tartibda aniqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi o'rnatilgan tartibda qo'shimcha davr mobaynida o'tgan moliya

yilini yakunlash bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish muddatlarini belgilaydi. Bunda, qo'shimcha davrda kreditorlik qarzni to'lash va Byudjet tashkilotining rivojlantirish jamg'armasiga iqtisod qilingan mablag'larni o'tkazish g'azna ijrosi bilan qamrab olingan byudjetdan mablag' oluvchilar tomonidan g'azna hisobvaraqlari orqali amalga oshiriladi. Quyidagilar natijasida bo'shagan mablag'lar iqtisod qilingan mablag'lar hisoblanmaydi va Byudjet tashkilotlarining rivojlantirish jamg'armasiga o'tkazilmaydi:

- hisobot choragi oxirgi oyining ikkinchi yarmi uchun ish haqini to'lashga moliyalashtirilgan mablag'lar, deponentlashtirilgan ish haqi va stipendiyalar, to'liq moliyalashtirilmaganlik (to'lovlar to'liq amalga oshirilmaganligi) yoki depozit hisobvarag'ida mablag'larning etishmasligi natijasida olib bo'linmagan nafaqalar;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida» 1999 yil 3 sentyabrdagi 414-sonli qarori bilan tasdiqlangan

«Byudjet tashkilotlarini xarajatlarini moliyalashtirish (to'lash) tartibi»ning 4-bandi bilan o'rnatilgan, hisoblangan, lekin ikkinchi guruh «Ish beruvchining ajratmalari» xarajatlari bo'yicha o'tkazilmagan xarajatlar natijasida bo'shab qolgan mablag'lar;

- byudjet tashkilotlarining set, shtat va kontingent bo'yicha rejaning bajarilmasligi yoki o'rnatilgan muddatlardan kech bajarilishi, yangi muassasalarning ochilishi yoki faoliyatning kengayishi sababli bo'shab qolgan mablag'lar;

- byudjetdan mablag' oluvchining faoliyatini (vaqtinchalik) to'xtatilishi natijasida bo'shab qolgan mablag'lar;

- byudjetdan mablag' oluvchilarning me'yordan ortiqcha shtat sonining tasdiqlanishi natijasida bo'shab qolgan mablag'lar;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, shuningdek viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyatlarining alohida qarorlari qabul qilinishi natijasida bo'shab qolgan mablag'lar. Bunda, qo'shimcha davrda iqtisod qilingan mablag'larni o'tkazish byudjetdan mablag' oluvchilar tomonidan quyidagicha amalga oshiriladi: ·

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar qaramog'idagi byudjetdan mablag' oluvchilar bo'yicha mazkur Qoidalarining 179-bandini hisobga olgan holda tayyorlangan tegishli hududiy moliya organining xulosasi asosida;

· respublika byudjeti qaramog'idagi byudjetdan mablag' oluvchilar bo'yicha byudjetdan mablag' oluvchilar tomonidan mustaqil ravishda mazkur Qoidalarining 179-bandi talablariga qat'iy rioya qilingan holda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi «Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi 414-sonli qaroriga muvofiq byudjet tashkilotlari rahbarlari byudjet tashkilotlarining rivojlantirish jamg'armasiga o'tkazilishi lozim bo'lgan iqtisod qilingan byudjet mablag'larini noto'g'ri aniqlanganligi uchun shaxsiy javobgardirlar. Moliya yilining tugashiga besh kun qolganda kechikmagan muddatda byudjet tashkilotlari, tegishli moliya organlari va g'aznachilik bo'linmalari byudjet mablag'larining har bir xarajatlar smetasi bo'yicha aniqlangan rejali byudjet mablag'larini o'zaro solishtirishni amalga oshiradi. Aniqlangan rejali byudjet mablag'larini o'zaro solishtirishni amalga oshirish uchun byudjet tashkilotlari aniqlangan mazkur Qoidalarining 11-ilovasidagi shaklga muvofiq rejali byudjetdan ajratilgan mablag'larning solishtirma dalolatnomasini uch nusxada tayyorlaydi. Solishtirma dalolatnoma byudjet tashkilotining rahbari va bosh hisobchisi (reja xizmati boshlig'i) tomonidan imzolanadi va tegishli moliya organiga taqdim qilinadi. Ushbu tartib hozirda amal qilib kelmoqda va to'lovlarni amalga oshirilishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mutaxassislar ushbu tartibga rioya etgan holda ish tutib kelmoqdalar.

1.3. Mahalliy byudjet xarajatlari ijrosini tashkil etishning xorijiy davlatlar tajribasi

Jahonning rivojlangan mamlakatalarida mahalliy byudjet xarajatlari ijrosining tashkil etilishi bazaviy jixatdan bir-biriga o'xshab ketadi, lekin turli mamlakatlarda ijroning amalga oshirish bosqichlari bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar ketma-ketligi yoki talab qilinadigan xujjatlar, amalga oshirish bosqichlari farq qilishi

mumkun. Misol uchun mahalliy byudjetning kassa xizmati Yaponiya banki va uning bo'limlari tomonidan amalga oshiriladi. Vazirliklar va muassasalar ularga belgilangan xarajatlar doirasida Moliya vazirligiga o'zlarining to'lov smetalarini taqdim etadi. Ushbu smeta Moliya vazirligi tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Ushbu smetalarning nusxasi Yaponiya markaziy bankiga jo'natiladi va shu asosda tegishli operatsiyalar bajariladi. Bazi mamlakatlarda mahalliy byudjet xarajatlari G'aznachilik tasdiqlangan byudjet asosida, byudjet tashkilotlariga resurslar ajratish bilan cheklangan taqdirda, uning roli sust bo'lishi mumkin. Agar g'aznachilikning roli faol bo'lsa, xarajatlarni to'lash majburiyatdarining limitlarini oldindan ko'zda tutilgan mezonlar asosida belgilaydi.

Mahalliy byudjet xarajatlari ijrosini optimallashtirishda G'aznachilikni tashkil etishning asosiy maqsadi shundan iboratki u davlatning moliyaviy resurslarini samarali boshqarishga tasir etadi. G'aznachilik deb ataladigan organlar davlat moliyasini boshqarishga taaluqli turli vazifalarni bajaradilar.

Avstraliyada mahalliy byudjet xarajatlari qismi ijrosi byudjetdan mablag' oluvchilarning so'rovi asosida amalga oshiriladi. Mamlakatda byudjetdan mablag' oluvchilarni byudjet majburiyatlarining aniq huquqiy-me'yoriy hujjatlari qabul qilingan bo'ladi, shuningdek, byudjet mablag'larini maqsadli va samarali ishlatishning nazorat usullari mavjud bo'lib, ular tarmoq vazirliklari tomonidan amalga oshiriladi. Bunda G'aznachilik departamenti faol g'aznachilik rolini o'ynaydi. Avstraliyada davlatning moliya – axborot tizimi faoliyat ko'rsatadi. Bunda byudjetning tayyorlash, uni ijro etish va yig'ilgan tushumlarning hisobini yuritish amalga oshiriladi. Mazkur axborot tizimi orqali G'aznachilik va Moliyaviy departamentlar bo'limlari bilan mustahkam aloqa o'rnatilgan, bundan tashqari, tarmoq departamentlari bilan aloqa bog'langan. Mamlakatda bunday tizining mavjudligi har doim davlatning moliyaviy resurslari to'g'risidagi tezkor umumiy axborotlarni olish imkonini beradi.

Frantsiyada mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosi ham G'aznachilik tizimi orqali amalga oshiriladi. Frantsiyada g'aznachilikning tashkil qilinishi XII-XIV

asrlarga to'g'ri keladi, shu paytga elib, birinchi marta davlat puli va qirolning mulki bir-biridan ajratib olinadi. Xarbiy va yirik kapital chiqimlar katta moliyalashtirilishni talab qilganligi sababli tarmoqlangan tizim orqali pulni yig'ish va markazlashtirish extiyoji tug'ildi. XX asrlada g'azna birligi, yani Markaziy bankda yagona g'azna hisobi tamoyili tarkib topdi, g'aznaning mamuriy tizimi shakillantirildi, unga davlat hisob-kitobi tarmog'i va pul nazorati berildi hamda Moliya vazirligiga buysundirildi.

“Mamlakatda g'aznachilik organlari Davlat byudjetini to'ldirish va ijro qilishni ta'minlaydigan 4000 dan ortiq bo'limlariga ega. G'aznachilik organlari davlatning solikli va soliqsiz daromadlarini yig'ib oladi va kerakli nazorat ishlaridan keyin davlat mablag'larini sarflanishini amalga oshiradi.

G'aznachilik organlari byudjet xarajatlarning hisob-kitobini yuritadi. Bu vazifa har bir geografik departamentga tayinlangan Bosh g'aznachiga yuklatilgan. Ularning amalga oshirgan moliyaviy operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar har kuni G'aznachilikning Markaziy Hisob agentligi Bosh buxg'alteriyasida ishlov uchun yig'iladi.

Bundan tashqari, G'aznachilik organlari davlat tashkilotlarini ta'lim muassasalarini ijtimoiy ta'minot va boshqaruv organlarini hamda ijtimoiy turar-joy tashkilotlarini moliyaviy faoliyatini tekshiradi va nazorat qiladi”¹². Bosh g'aznachi joylardagi 27000 muassasalarni (mahalliy buxgalterlarni, davlat tashkilotlarini-ta'lim muassasalarini ijtimoiy ta'minot va boshqaruv organlarini hamda ijtimoiy turar joy tashkilotlarini) nazorat qilish zarur.

Davlat buxgalterlari byudjet mablag'lari taqsimlovchilarning moliyaviy maslaxatchilaridir. Davlat g'aznasi mahalliy byudjet xarajatlarini ijrosida qo'yidagilarni nazorat qiladi:

- A) Byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning vakolatlarini;
- B) Kreditlarning mavjudligini;
- S) Qarz majburiyatlarida ko'rsatilgan muddatlarni;
- D) Xarajatlarni aniq byudjet tasnifi bo'yicha amalga oshirilishini;

¹² Практика государственного управления во Франции: Государственное Казначейства. Сборник документов Франко-Российского сотрудничества №8 стр. 11.

Shu bilan birga Frantsiyada kadrlar masalalariga katta e'tibor beriladi chunki Frantsiya g'aznachiligi tizimida 58000 tadan ziyod mutaxassislar ish olib borishadi. Kadrlar uch pog'onaga bo'linadilar: Rahbarlar, Litsenziyaga ega mutaxassislar va o'rta-maxsus bilimga ega mutaxassislar. Mazkur tizimda mablag'lar harakati va ulardan maqsadli foydalanish ustidan joriy va keyingi nazoratni kuchaytirishga oid qonunlarni me'yoriy hujjatlarni yo'riqnomalarni bilmasdan turib g'aznachilik organlaridagi mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligisiz ish tashkil etish mumkin emas. Shu bois respublikamizda ham g'aznachilik bo'limlaridagi kadrlar masalalarini hal etishda moliya-soliq, bank sohasidagi ish tajribasiga ega bo'lgan mutaxassislar tanlab olinishi va kasbiy malakasi oshirilishi zarur.

Argentinada qabul qilingan 1992 yilgi "Jamoat sektorini moliyaviy boshqarish va audit haqidagi Qonun"ga asosan g'aznachilik tizimiga tushumlarni yig'ish, jamoat sektoridagi to'lovlar oqimi va naqd aktivlarni saqlash bilan bog'liq agentliklar kiradi. Bu ta'rif g'azna vazifalari ichidan davlat g'aznasi veksellari chiqarishdan tashqari davlat qarzlarini boshqarish vazifasini bajarilmasligini belgilaydi.

Ispaniyada g'aznachilik funksiyalari Moliya kotibining o'rinbosari Kantselyariyasi MK va G'aznachilik bosh direktorati (G'BD) o'rtasida taqsimlangan. Ikkala muassasa ham ikkinchi darajadagi tuzilmaviy strukturalar bo'lib, Moliya vazirligi tasarrufidadir. Mamlakat markaziy bankida G'aznachilikning yagona hisobi mavjuddir. Yagona hisob bo'yicha tushumlar va tulovlar ustidan nazoratni G'aznachilik bosh direktori amalga oshiradi. Yagona hisobga tushumlar bo'yicha nazorat uning zimmasida bo'lishiga qaramay ba'zi bir soliqsiz daromdlardan tashqari soliqlar yig'ilishida qatnashmaydi. Moliya vazirligi tarkibiga kiruvchi soliq boshqarmasi, bank tizimi orqali soliqlarni yig'adi. Byudjetning xarajatlari bo'yicha g'aznachilik o'zida ayrim xarajatlar bo'yicha to'lovlarni kechiktirish huquqini saqlagan holda, oylik va choraklik to'lovlarni amalga oshirishi bo'yicha majburiy jadvalni tuzadi. Byudjet birliklari tomonidan majburiyatlari olish, tekshirish va to'lash bo'yicha qabul qilingan qarorlar


g'aznachilik tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi. To'lov topshiriqnomalari G'aznachilik bosh direktorati tomonidan byudjet ajratmalarini hamda naqd to'lovlar jadvali hisobga olingan holda amalga oshiriladi. Har qanday davlatning qarzlar hajmi, muddati va shartlari G'aznachilik bosh direktorati tomonidan amalga oshiriladi. Har qanday davlatning qarzlar hajmi, muddati va shartlari G'aznachilik bosh direktorati tomonidan amalga oshiriladi. Qimmatli qog'ozlar Markaziy bankning agenti sifatidagi ishtirokida amalga oshiriladi. lekin tashqi yoki boshqa qarz olishlar bevosita G'aznachilik bosh direktorati tomonidan bajariladi. G'aznachilik qimmatli qog'ozlar ikkilamchi bozorini tartibga solishdan keng vakolatlarga egadir.

Ispaniyada davlat axborot tizimi faoliyat qo'rsatadi va unga Moliya vazirligi Kuntselyariyasi mas'uldir. Mazkur axborot tizimi orqali istisnalarsiz barcha davlat operatsiyalari o'tkazishga majburdir. Ushbu tizim byudjet ijrosini olti bosqichda bajaradi: byudjet ajratmalari, majburiyat olish, tekshirish, to'lov talabi, to'lov topshirig'i va haqiqiy mablag' ajratish. Byudjetni tayyorlash ham tizim orqali amalga oshiriladi. Bunda barcha turdagi rasmiy ma'lumotlar shakllantiriladi va barcha turdagi statistik ma'lumotlar tayyorlanadi. Mazkur tizim suhbatli rejimda, aniq vaqt ko'lamida ishlaydi va har qanday ma'lumot tezkor taqdim etiladi. Soha departamentlari va keyingi byudjet oluvchilar bilan ham aloqalar mavjud.

Yaponiyada g'aznachilikni bajaradigan funktsiyalarning tashkiliy sxemasi o'ziga xos xususiyatga ega. Bu mamlakatda g'aznachilikning bajaradigan funktsiyalari G'aznachilik bo'limiga, Qarzlarni boshqarish bo'limiga, Moliya bo'limiga, byudjet bo'limiga, Huquqiy bo'limga va byudjetni ijro etish bo'limiga yuklatilgan. Bu bo'limlar byudjet va Moliya byurosi tarkibiga kiradi, bu byurolar Moliya vazirligining bo'linmalari hisoblanadi. Ko'rinib turibdiki, Yaponiyada davlat moliyasini boshqarish maxsus ixtisoslashgan bo'limlarga yuklatilgan.

Yaponiyada G'aznachilik bo'limi kunlarga bo'lingan moliya rejasini tayyorlaydi, shuningdek, byudjetni ijro etish bo'limi bilan davlatning Yaponiya bankidagi hisobraqamdan to'lanadigan to'lovlari va tushumlarini nazorat qiladi.

Barcha tushumlarni yig'ilishiga Moliya vazirligi tarkibidagi Milliy Soliq xizmati va Bojxona departamenti javob beradi. Soliqlar to'g'ridan to'g'ri Yaponiya bankiga yoki vakolat berilgan tijorat banklariga, milliy Soliq xizmati va Bojxona departamentining mahalliy bo'limlarida pochta tizimi asosida to'lanishi mumkin. Yuqoridagilarning barchasini 1.3.1-rasmda ko'rishimiz mumkin.



1.3.1-rasm¹³. Yaponiya mamlakatida mahalliy byujet ijrosini amalga oshiruvchi g'aznachilik bo'limlari.

Buyuk Britaniya mahalliy byudjetlarning ijrosini G'aznachilik organlari taminlaydi. G'aznachilikning asosiy funktsiyasi g'aznachilikning yagona hisobraqami hisoblangan konsolidatsiyalashgan fondagi barcha tushumlarni nazorat qilishdir. Shuningdek, konsolidatsiyalashgan fondan to'langan barcha to'lovlar xam uning nazoratida bo'ladi. G'aznachilik daromadlarni va xarajatlarni balanslashtirish maqsadida xar oyda moliya rejasini ishlab chiqadi, bu rejadan qisqa muddatli moliyalashtirishdagi talablarni aniqlashda foydalaniladi.

AQSh da ham qolgan mamlakatlarga o'xshab mahalliy federal xududlar moliyasini federal g'aznachilik organlari amalga oshiradi. Tarmoq departamentlari

¹³ Зарубежный опыт построения казначейской формы исполнения бюджета. Г.Халымбетова, А.Халымбетова. Рынок, деньги и кредит, 4 апрел 2007 г.

mablag'larni to'g'ri va samarali ishlatilishi bo'yicha nazoratni amalga oshiradi. Barcha xarajatlar tasdiqlangan byudjet parametrlari doirasida byudjetdan mablag' oluvchilarning so'rovi asosida G'aznachilik tomonidan to'lanadi, bunda cheklardan va elektron pul o'tkazish vositalaridan foydalaniladi.

Rossiya mamlakatida ham federal hududlar moliyasining ijrosini g'aznachilik tarmoqlari taminlaydi. Rossiya federatsiyasida 1992 yili federal miqyosida hududiy g'aznachilik tizimi vujudga keldi. Federal g'aznachilik organi Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligi tarkibga kiradi, markazlashgan tizim hisoblanadi va u hududiy tamoyillarga asoslanadi. Bunga huquqiy asos bo'lib Rossiya Federatsiyasi Prezidentining Farmoni, "G'aznachilik to'g'risida"gi Nizom xizmat qiladi.

Rossiya G'aznachilik tizimi uch bosqichda tashkil topgan. Mahalliy byudjetlar ijrosini taminlovchi bo'limlar uchinchi bosqichdan o'rin egallaydi.

Uchinchi bosqich, Federal G'aznachilik bo'linmalari, shahar, tuman va shaxar tumanlari, tumanga qarashli shaxarlardan tashqari byudjetdan mablag' oluvchilar tomonidan qilinadigan xarajatlarni maqsadli ishlatilishini ta'minlash va hududlarda federal byudjetning daromadlar qismini shakllantirishni ta'minlaydi. Federal G'aznachilik bo'limlari hududdagi federal byudjetning tushum va xarajatlari ijrosi to'g'risidagi yuqori tashkilotlarga axborot beradi.

Federal byudjet ijrosi Rossiya Federatsiyasi Markaziy banki yoki uning shoxobchalarida ochilgan hisobraqamlarda g'aznachilik organlari tomonidan amalga oshiriladi yoki Rossiya Federatsiyasi moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tijorat banklari ham amalga oshiradi. Rossiya Federatsiyasining Byudjet kodeksining 155-moddasida ta'kidlanishicha, Rossiya Markaziy banki muassasalarida g'aznachilik organlarining hisobraqami mavjud. Hududlarda Rossiya Federatsiyasi Markaziy banki muassasalari bo'lmasa, g'aznachilik hisobraqami vakolat berilgan xususiy tijorat banklarida bo'ladi.

Umumlashtirib shuni aytish mumkinki, "Xamdo'stlik va Boltiqbo'yi mamlakatlarining aksariyatida tizimning kamchiligi byudjet tasniflarining mukammal emasligi, byudjetdan mablag' oluvchi tashkilotlarning o'ta ko'pligi

va ajratmalarning murakkab tarkibi g'aznalar tashkil qilishda to'siq bo'lmoqda. Bundan tashqari, ayrim xollarda g'azna va ko'plab moliya vazirliklari, byudjet boshqarmalari aloqalarida uzilishlar xam yuzaga kelmoqda. Buning sababi byudjet tayyorlanayotganda asos qilib g'aznachilik tizimining oxirgi yoki hisoblangan ma'lumotlari emas o'tgan yilgi byudjet olinmoqda. Shunday qilib, bir real bo'lmagan byudjet asosini ikkinchi real bo'lmagan byudjetni tashkil qilmoqda"¹⁴

Yuqoridagilardan ko'rinib turibiki barcha rivojlangan mamlakatlarda mahalliy byudjet xarajatlari ijrosi tizimi g'aznachilik tizimiga to'laqonli o'tgan va bu tizim o'zining samarasini ko'rsatib kelmoqda. Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samarali tashkil etishda g'aznachilik organlari va nazoratning rolini oshirish katta ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda.

Birinchi bob bo'yicha hulosalar.

G'aznachilikni joriy etish mahalliy byudjetlar xarajatlar qismida byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishining nazoratini kuchaytirish va pul oqimlarini samarali boshqarish imkonini beradi. Mazkur tizimni joriy etish bilan mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosini kuzatish, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda qulaylik yaratish, byudjet mablag'larini maqsadsiz sarflanishdan himoyalash va byudjetni rivojlantirish va prognozlashtirish sifatini oshirish mumkin bo'ldi.

Nazariy jihatdan qaralganda g'aznachilik tizimi joriy etilishi quyidagi ijobiy natijalarga erishishga imkoniyat beradi: mahalliy byudjetlar moliyaviy resurslarining real hajmini va uning istiqbol ko'rsatkichlarini doimiy nazorat qilish, mahalliy moliyaning holati to'g'risidagi tezkor va muntazam ravishda axborotlarni yig'ish, ishlov berish va tahlil qilish, mahalliy byudjetlar xarajatlari kassa ijrosini har kungi aniqlashtirilgan monitoringini o'tkazish, tasdiqlangan byudjet mablag'lari doirasida byudjet tashkilotlarining tovarlar va xizmatlar yetkazib beruvchilar oldidagi majburiyatlarini qabul qilish bosqichida dastlabki nazoratni amalga oshirish, moliya organlari tomonidan mahalliy byudjetlar xarajatlarini o'z vaqtida va manzilli moliyalashtirish bilan mahalliy byudjet mablag'larini bosh

¹⁴ Тер-Минасян Т., Мартинес-Миндес П. И Паренте П. П. Создание казначейства в странах с переходной экономикой. МВФ. Вашингтон. 2005

taqsimlovchilari tomonidan sui'ste'mol qilish va noto'g'ri ishlatishning oldini olish maqsadida joriy nazorat olib borish, byudjet tashkilotlari majburiyatlarni olgandan keyin pul mablag'larini g'aznachilik hisob raqamidan to'g'ridan-to'g'ri tovar yetkazib beruvchilar hisob raqamiga o'tkazish orqali pul oqimlari harakatini tezlashtirish o'z vaqtida to'lovni amalga oshirish orqali ta'minotchilarni moliyaviy imkoniyatlarini yaxshilash, g'aznachilik tizimining bir pog'onasidan ikkinchi pog'onasiga pul mablag'lari o'tkazishni tezlashtirish orqali byudjet mablag'larini tezkor harakat qilinishini ta'minladi.

Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari o'z tarkibiga maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, fan, ijtimoiy ta'minot, aholi uchun ijtimoiy ahamiyat kasb etgan xizmatlar baholaridagi farqlarni byudjetdan qoplash va oilalarga ijtimoiy nafaqalarni oladi. Davlatning ijtimoiy funktsiyasini o'zida aks ettirib, bu guruhdagi byudjetning xarajatlari xalq ta'limi tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga, fan va madaniyatni moliyalashtirishga, aholining tibbiy xizmatga bo'lgan talabini (ehtiyojini) qondirishga, ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minotni amalga oshirishga keng yo'l ochib beradi.

Yuqoridagi bobda ko'rib o'tdikki barcha rivojlangan mamlakatlarda mahalliy byudjet xarajatlari ijrosi tizimi g'aznachilik tizimiga to'laqonli o'tgan va bu tizim o'zining samarasini ko'rsatib kelmoqda. Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samarali tashkil etishda g'aznachilik organlari va nazoratning rolini oshirish katta ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda.

II bob. Davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimi sharoitida mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining amaldagi holati tahlili

2.1. Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosida g'aznachilik tizimini joriy etish bosqichlari tahlili

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2005 yil 24 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2006 yilgi Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 244-son qarorining 18-bandiga asosan 2006 yilning 1 yanvaridan boshlab esa Respublikamizning Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro, Sirdaryo, Surxondaryo, Namangan, Toshkent shaxrida joylashgan byudjet tashkilotlari shu mexanizm bilan qamrab olindi. 2006 yilning sentyabr oyidan boshlab Samarqand viloyati Yagona G'aznachilik xududiy hisob raqami ochilib, byudjet tashkilotlarining byudjet hisob raqamlari yopildi. 2006 yil dekabr oyidan boshlab Namangan, Buxoro va Toshkent shaxarlarida Yagona G'aznachilik xududiy hisob raqami ochildi. Bu xududlarda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2006 yil 24 iyuldagi 1599-son bilan ro'yxatdan o'tgan "Samarqand viloyati va Toshkent shaxri maxalliy byudjetlarining g'azna ijrosi hisobi to'g'risidagi Vaqtinchalik qoidalar" xamda 2006 yil 27 iyuldagi 1600-son va 1601-son bilan ro'yxatdan o'tgan "Byudjetdan mablag' taqsimlovchi (oluvchi)larning shaxsiy hisob varag'ini ochish xaqida Vaqtinchalik qoidalar" xamda "Samarqand viloyati va Toshkent shaxrida G'aznachilik ijrosida buxgalteriya hisobi haqida Vaqtinchalik qoidalar" asosida byudjet tashkilotlarining xarajatlarini Yagona G'aznachilik xududiy hisob raqamlaridan amalga oshirildi¹⁵.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2006 yil 18 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2005 yilgi Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 532-son qarorining 26-bandiga asosan 2007 yil 1 yanvardan boshlab Respublikamizning Andijon, Farg'ona, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy va Toshkent viloyatlari qamrab olindi. Shu yilning 1 oktyabridan boshlab qolgan barcha xududlarida ushbu mexanizm bilan qamrab olish ko'zda tutildi. 2008 yil 1

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi materiallari asosida

yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida hududiy g'azna raqamlari ochilib joriy etila boshladi.

Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganlaridek "Davlat byudjetini bajarishga qaratilgan g'aznachilik xizmati institutini rivojlantirish va mustahkamlash byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini ancha oshiradi. Bu borada Moliya vazirligi huzurida yangi tashkil etilgan G'aznachilik tuzilmasining moddiy-texnik bazasini barcha pog'onalarda mustahkamlash, uni malakali kadrlar bilan ta'minlash, xalq ta'limi va sog'liqni saqlash sohasida byudjet tashkilotlarini moliyalash mexanizmini yanada takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlarni amalga oshirish lozim."¹⁶

G'aznachilik tatbiq etilishining ijobiy natijalari; quyi byudjet tashkilotlariga mablag'larni bosqichma - bosqich moliyalashtirish mexanizmi tugatildi. Byudjet mablag'larining banklardagi ko'plab hisob raqamlarda tarqalib yotishiga barham berildi. Mablag'lar g'aznachilik hisob raqamida jamlandi va buning natijasida to'lovlarni amalga oshirish, shu jumladan ish haqini to'lash muddatlari qisqardi. Byudjet mablag'larining aylanish jarayonining samaradorligi oshdi.

Davlat byudjetining kassa ijrosi, Davlat byudjeti mablag'larining tushumi va sarfi ustidan nazoratni amalga oshirish; Davlat byudjeti mablag'larini boshqarish; Davlat byudjetida mablag'lar nazarda tutilgan yuridik yoki jismoniy shaxslar nomidan va ularning topshirig'iga binoan to'lovlarni amalga oshirish; byudjet tashkilotlarining tovarlar etkazib berish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish g'aznachilikka o'tish bosqichlari 2005 yil 1-iyundan boshlab Toshkent shahri va Samarkand viloyatida davlat byudjetining g'aznachilik ijrosining ayrim elementlarini tadbiq qilindi. 2006 yilda Qorakalpog'iston Respublikasi va oltita viloyatda (Buxoro, Namangan, Samarkand, Surxondaryo, Sirdaryo, Xorazm) bosqichma bosqich tadbiq etildi. Qolgan xududlar 2007 yil mobaynida qamrab olindi. Xozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi buyicha G'aznachilik-4 dasturi ishlayapti.

¹⁶ Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash – barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. "Xalq so'zi" gazetasi №28(4438)- soni. 9 fevral, 2008 yil

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevralda PQ-594 sonli "Davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori chiqdi.

2007 yil 20 martda Vazirlar Mahkamasining 53-son qaroriga asos «O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi to'g'risida» Nizom chiqdi. Ushbu Nizom «Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2007 yil 28 fevraldagi 594-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Xalqaro valyuta jamgarmasi o'rtasida 2002 yilda imzolangan Memorandumda iqtisodiy islohotlarni kengaytirish va chuqurlashtirish ishlari bilan birgalikda davlat xarajatlarini boshqarishni takomillashtirish masalalariga katta e'tibor qaratilgan. Ular qatorida respublikada g'aznachilik tizimini joriy qilinishi eng' muhim vazifa deb e'tirof etilib, u Hukumatimizning' yaqin kelajakdagi davlat moliyasi siyosatining' negizini tashkil etadi.

Loyihani amalga oshirish ishlari 2002-2006 yillarni qamrab oladi. Mana shu munosabat bilan 2002 yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining' 2002 yil 26 apreldagi 144-sonli "Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasini amalga oshirishga tayyorlanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga asosan loyihani tayyorlash va amalga oshirish uchun Vazirlar Mahkamasi qoshida muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil qilindi va u hozirda ish olib bormokda.

Loyihaning' asosiy maqsadlari bu davlat moliyasini boshqarishni takomillashtirish, Davlat byudjetini tayyorlash jarayonini isloh qilish va Davlat byudjeti ijrosini g'aznachilik shakliga o'tish orqali byudjet mablag'larini samarali sarflanishini ta'minlashdan iboratdir.

Quyidagi jadvalda G'aznachilikni joriy etish loyihasini moliyalashtirish manbalari keltirilgan.

2.1.1-jadval

Davlat byudjeti ijrosida g'aznachilik tizimini joriy etish loyihasini moliyalashtirish manbalari

T/r	Moliyalashtirish manbalari	Miqdori (AQSh dollari)	Salmog'i (foizda)
1	O'zbekiston Respublikasi Hukumati	2 936 420	17,0
2	Jahon banki	10 000 000	57,0
3	Yaponiya Hukumatining birinchi granti	483 152	3,0
4	Yaponiya Hukumatining ikkinchi granti	2 300 000	13,0
5	Islom rivojlanish banki (IRB)	250 000	1,0
6	Ayni payta majburiyat yuq	1 576 241	9,0
	Jami	17 545 813	100,0

Manba: <http://www.mf.uz>

Jadvaldan kurinib turibdiki, loyiha asosan jahon banki mablag'lari 57 foizni tashkil qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan ajratilmadigan mablag' miqdori 17,0 foizni tashkil qilmoqda. Yaponiya hukumati tomonidan berilayotgan mablag' 13 foizni tashkil qiladi.

Quyidagi 2.1.2-jadvalda G'aznachilikni joriy etish loyihasining xarajat turlari keltirilgan.

Ma'lumotlardan kurinib turibdiki, Global tarmoqlar uchun jihozlariga mablag'larning 13 foizi, Server uchun jihozlarga 13 foizi, G'aznachilik uchun dasturiy ta'minotiga 20 foizi, Dasturiy takliflarni ishlab chiqish uchun 14 foizi sarflanishi kuzda tutilgan.

2007 yil 1 noyabrda O'zbekiston Respublikasining Prezidentining "Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida «Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish» loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 721-sonli qarori qabul qilinib O'zbekiston Respublikasining «Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq hamda Davlat byudjeti g'azna ijrosining yagona integratsiyalashgan axborot tizimini yaratish maqsadida Osiyo taraqqiyot banki

(OTB) Direktorlar kengashi O'zbekiston Respublikasiga «Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish» loyihasini amalga oshirish uchun 20,7 mln. AQSh dollari miqdorida to'rt yillik imtiyozli davrni hisobga olgan holda uzish muddati 25 yil bo'lgan qarz, shuningdek 0,6 mln. AQSh dollari miqdorida texnik yordam ko'rsatish granti berilishini ma'qullandi. Mazkur Loyihani amalga oshirish davri to'rt yil deb belgilangan edi.

2.1.2-jadval

Davlat byudjeti ijrosida g'aznachilik tizimini joriy etish loyihasining xarajat turlari

(AQSh dollari)

Xarajatlar tarkibi	Miqdori	Salmog'i (Foizlarda)
Jami	17545813	100,0
Jumladan:		
G'aznachilik binosini ta'mirlash	1100000	6,0
Axborot tizimi loyihasi	483152	3,0
Ishchi stantsiyalar uchun jihozlar	1 311 100	7,0
G'aznachilikni institutsional tarkibiy tuzilishi	1462205	8,0
Dasturiy takliflarni ishlab chiqish	2 532 481	14,0
Uzgarish kiritish buyicha va AT bo'yicha o'qitish	565 030	3,0
Global tarmoqlar uchun jihozlar	2 350 000	13,0
Server uchun jihozlar	2 315 100	13,0
G'aznachilik uchun dasturiy ta'minot	3550250	20,0
Boshqa xarajatlar (Litsenziya, kadr tayyorlash)	1 876 495	13,0

Manba: <http://www.mf.uz>

Loyihani amalga oshirishga O'zbekiston Respublikasining qo'shadigan ulushi ekvivalenti 14,1 mln. AQSh dollarini, shu jumladan soliqlar, bojxona

to'lovlari va davlatning maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar to'lashdan ozod etish tarzida 3,9 mln. dollarni tashkil etadi. Asosiy qarzni qoplash, qarz bo'yicha foizlar va komissiyalar to'lash bilan bog'liq xarajatlar davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.¹⁷

Respublikada davlat moliyalarini isloh qilish dasturi xarajatlar va moliyalarni boshqarishni samarasini oshirish, umumiy pul-kredit intizomini mustahkamlash va ajratmalarni oldingi vazifalarni nazarda tutgan holda taqsimlash, byudjet ijrosi va byudjet nazoratini samarali ta'minlash, uning' tiniqligini oshirish va davlat mablag'larini ishlatganligi uchun hisobotni takomillashtirishga yo'naltiriladi. Mazkur maqsadlarga erishish uchun byudjet ijrosi va uni tayyorlashni takomillashtirish, shu jumladan g'aznachilik tizimini joriy qilish va uni barcha zaruriy jixozlar, axborot texnologiyalari bilan ta'minlash ishlarini amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda tasdiqlangan loyiha asosida g'aznachilik tizimini joriy qilish ishlari tashkiliy-huquqiy, texnik-iqtisodiy va kadrlarni o'qitish va qayta o'qitish ishlarini o'z ichiga oladi.

Markaziy g'aznachilikning' tashkil qilishdan maqsad – O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining' ijrosi jarayonida mablag'lar samarali boshqarish, davlat buyurtmalarini va dasturlarini moliyalashtirishda tezkorlikni oshirish, byudjet daromadlari tushumini va davlat mablag'laridan maqsadli sarflanishini nazorat qilishda tezkorlikni ta'minlashdir.

Markaziy g'aznachilik – daromadlar va xarajatlar Davlat byudjetining' ijrosida, byudjet hisobvarag'lari va mablag'larini boshqarishda aniq vakolatlarga ega va u Moliya vazirligining' tashkiliy tizimi hisoblanadi¹⁸.


Markaziy g'aznachilik o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, Davlat qonunchiligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining' qarorlari, farmonlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining' qaror va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Moliya

¹⁷ O'zbekiston Respublikasining Prezidentining "Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida «Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish» loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2007 yil 1-noyabrdagi 721-sonli qarori

¹⁸ И.Г.Акберов, И.А.Конапеева, С.П.Головач. Казначейская система исполнения бюджета в РФ. Учебное пособие. / – М.: Финансы и статистика 2007 г. стр. 154.

vazirligining' ko'rsatma va yo'riqnomalari hamda boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

«Davlat moliyalarini isloh qilish» loyihasini amalga oshirish bosqichlari asosiy elementlari 2.1.1-rasmda keltirilgan.



2.1.1-rasm¹⁹. «Davlat moliyalarini isloh qilish»

loyihasini amalga oshirishning' asosiy bosqichlari

Davlat byudjetini g'azna ijrosi byudjet mablag'larining' maqsadli va samarali ishlatishga hamda kreditor to'lov intizomini mustahkamlashga va natijada debitor va kreditor qarzdorliklarni keskin qisqartirish, ya'ni Davlat byudjeti ijrosi jarayonini jahon andozalariga javob beradigan yangi sifat pog'onasiga chiqarishdir.

¹⁹ Davlat moliyasini isloh qilishning dolzarb muommalari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallar. T.: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi moliya organlari va byudjet tashkilotlarining moliya-hisob bo'linmalari xodimlarini tayrlash va qayta tayrlash O'quv markazi, 2009 yil 2 dekabr.

O'zbekiston Respublikasi G'aznachilik tizimini yaratish bilan bog'liq bo'lgan islohotlar Davlat byudjeti ijrosi jarayondagi tubdan o'zgarish deb baholasa bo'ladi.

Byudjet ijrosini isloh qilishda Davlat byudjeti ijrosiga mas'ul bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining' g'aznachilik tizimini yaratish nazarda tutildi. Respublikamizda Davlat byudjeti g'aznachilik ijrosiga bosqichma-bosqich o'tish rejasi O'zbekiston Respublikasi G'aznachiligini tashkil etish kontseptsiyasiga asosan ishlab chiqilgan va unda mamlakatimizning' iqtisodiy rivojlanishi xususiyatlari inobatga olingan.

Respublikada G'aznachilik tizimiga bosqichma-bosqich o'tishning' asosiy elementlari quyidagilardan iborat²⁰:

- Huquqiy - me'yoriy baza yaratish;
- G'aznachilikning' material-texnik bazasini yaratish;
- G'aznachilik tizimi uchun kadrlarni tayyorlash;
- Informatsion-axborot Dasturlari ta'minoti.

G'aznachilik organlari o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni ijro etish jarayonida davlat boshqaruvining' tegishli organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari, boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda bajaradi. Belgilangan tartibga ko'ra mazkur organlar va tashkilotlar Davlat byudjetining' kassa ijrosini amalga oshirishda, uning' mablag'larini boshqarishda, Davlat byudjeti mablag'larining' tushumi va sarfi ustidan nazoratni amalga oshirishda G'aznachilikka ko'maklashishlari lozim.

G'aznachilik organlari o'z ish faoliyatida davlat soliq, bojxona xizmati organlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari, davlat maqsadli jamgarmalarini taqsimlovchi organlar, Davlat byudjetida mablag'lar olishi nazarda tutilgan yuridik shaxslar, shuning'dek byudjet jarayonining' boshqa

²⁰ Tuxliev B.K., Alieva L.K., Aliev S.K. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi: O'quv qo'llanma – T.: TDIU., 2007. 78 bet

ishtirokchilari Davlat byudjetining g'azna ijrosiga tegishli ma'lumotlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda almashib turadilar²¹.

G'aznachilik organlari tamonidan yag'ona g'azna hisobvaragidagi va G'aznachilikning boshqa bank hisobvaraqlaridagi Davlat byudjeti mablag'lari byudjet mablag'lari to'lovlari ko'zda tutilgan xarajatlarni belgilangan muddatlarda va tartibda amalga oshiriladi. Shuningdek, Davlat byudjeti bo'sh mablag'lari bank depozitlari va boshqa aktivlarga vaqtincha joylashtirish hamda ular hisobidan respublika byudjetiga, Qoraqalpogiston Respublikasi byudjetiga, mahalliy byudjetga, shuningdek davlat maqsadli jamg'armalariga byudjet ssudalari berish orqali ham boshqarib boriladi.

Respublikada g'aznachilik tizimi joriy etilishi vaqtinchalik xarakatda bo'lmagan byudjetning erkin mablag'larini, samarali moliya bozorlarida joylashtirib, undan olingan daromadni esa byudjet xarajatlarini to'liq moliyalashtirishga, byudjet taqchilligini kamaytirishga va davlat qarzlarini to'loviga yo'naltirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 dekabrda PP-1024 sonli "O'zbekiston Respublikasining 2009 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi Qaroriga asosan quyidagi davlat maqsadli va boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalarning daromad va xarajatlarini g'aznachilik mexanizmi bilan qamrab olish nazarda tutildi:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya fondi;
- 2) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi;
- 3) O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasining maxsus hisobvaragi;
- 4) Bandlikka ko'maklashish Davlat jamg'armasi;

²¹ Abueva U. Davlat byudjetining g'azna ijrosi xalqaro tajribasi va g'azna ijrosining O'zbekistondagi o'ziga xos xususiyatlari. "Soliq solish va buxgalteriya hisobi" №11 (29) son, 2008 yil, 21 bet

5) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Maktab ta'limi jamg'armasi;

6) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Erlarning meliorativ holatini yaxshilash fondi;

7) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamg'armasi;

8) Ipoteka kreditini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi;

9) Qishloq xo'jaligini texnika bilan ta'minlash Davlat fondi.


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 22 dekabrda № PQ-1245 “O'zbekiston Respublikasining 2010 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida”gi Qaroriga muvofiq 2010 yil 1 yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona qo'mitasining daromadlar va xarajatlar bo'yicha depozit hisobvaraqlari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'larini davlat byudjetining g'azna ijrosi mexanizmlari bilan qamrab olindi.

G'aznachilikka o'tish tadbirlarining ketma-ketligini 1–ilovadagi jadval ko'rinishida ham ifodalash mumkin.

1-ilova ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2014 yilga kelib O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetining “G'azna ijrosi to'g'risida”gi qonuni va O'zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to'g'risida”gi qonuni birlashtirilib O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi qabul qilindi va 2014 yil 1 yanvardan amalga kiritildi.

2.2. Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosida g'aznachilik tizimi amaldagi holati tahlili

Davlat byudjetining barcha mablag'lari g'aznachilikning yagona bir hisobraqamida to'planadi, amaldagi byudjet tizimida buning iloji yo'q edi, chunki, ba'zi mahalliy soliqlar va yig'imlar tuman byudjetining tijorat banklardagi hisobraqamiga tushadi. G'aznachilikni joriy etilishi bilan, davlat byudjetining daromad qismining ijrosi tijorat banklari tomonidan emas, g'aznachilik tizimi



2.2.1-rasm²². G'aznachilikdan xarajatlarni moliyalashtirishga sertifikatlar berilishi

²² T. Eshnazarov. G'aznachilik tizimi munosabatlari. – T.: "Fan", 2008. 36-bet

orqali amalga oshiriladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi byudjet tizimining barcha darajadagi byudjetlarga tushumlarning manbalari bo'yicha soliqlarning yig'ilishi to'g'risida, byudjet tasnifi asosida respublika va mahalliy byudjet xarajatlarining kassa ijrosi bo'yicha har kuni axborot olinishi mumkin bo'ladi. Davlat byudjetining xarajatlar va daromadlar qismining ijrosi to'g'risidagi hisobot g'aznachilik tomonidan tuziladi.

Demoqchimizki, byudjetni ijro etilishida g'aznachilik tizimiga o'tish byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanishning, boshqaruv organlari xarajatlarini qisqartirishning imkoniyatini beradigan to'g'ri yo'llardan biridir. Zero, O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar yanada chuqurlashtirilayotgan davrda, ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida bo'lgani kabi moliya, byudjet sohasida ham chuqur o'zgartirishlarni amalga oshirish hozirgi kunning asosiy talabidir.

Davlat moliyasidan maqsadli tarzda, oqilona, samarali foydalanish har qanday mamlakat byudjetlari ijrosining zaruriy ko'rsatkichi hisoblanadi, byudjet ijrosi soliq to'lovchining ham, davlat hokimiyati va boshqaruv organi vakillarining ham diqqat e'tiborida turadi. Biz buni yuqoridagi chizmada ko'rishimiz mumkin.

G'aznachilik joriy etilishi bilan Moliya vazirligi va moliya organlarining funktsional majburiyatlari quyidagicha taqsimlanishi mumkin. (2.2.1-jadval)

G'aznachilik tizimi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlariga mos holda davlat xarajatlarini samarali boshqarishga yo'naltirilgan tashkiliy-huquqiy munosabatlarning yig'indisidan iborat. Bu munosabatlar davlat byudjetining daromad va xarajatlari bo'yicha amaliyotlarni qamrab olganligi sababli, O'zbekiston sharoitida davlat moliyasini boshqarishning markazidan o'rin egallaydi.

G'aznachilik organlari o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni ijro etish jarayonida davlat boshqaruvining tegishli organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari, boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda bajaradi.

2.2.1-jadval

Byudjetni ijro etish jarayonida funktsional majburiyatlarni taqsimlanishi²³


Byudjet jarayoni bosqichlari	Amaldagi byudjet tizimi	G'aznachilikdagi byudjet tizimi
1.Byudjet loyihasini tayyorlash	Byudjet Boshqarmasi-Hududlar moliyasi Boshqarmasi	Byudjet Boshqarmasi-Hududlar moliyasi Boshqarmasi
2.Byudjet mablag'larini yillik, choraklik limitlarining taqsimoti	Byudjet Bosh Boshqarmasi-Hududlar Moliyasi Boshqarmasi, vazirliklar va idoralar	Byudjet Bosh Boshqarmasi-Hududlar Moliyasi boshqarmasi, vazirliklar va idoralar
3.Yillik, choraklik byudjetlarni aniqlashtirish	Byudjet Bosh Boshqarmasi-Hududlar moliya Boshqarmasi	Byudjet Bosh Boshqarmasi-Hududlar Moliya Boshqarmasi
4.Kassadagi naqd pullarni boshqarish-oylik byudjet tushumlari va xarajatlarini rejalashtirish	Byudjet Bosh Boshqarmasi-Hududlar Moliya Boshqarmasining buxgalteriyasi	G'aznachilik-respublika, viloyat, tuman, shahar bosqichlari
5.Kassa limitlari to'g'risida bildirishnomalarni berish	Byudjet boshqarmasi sertifikat beradi	G'aznachilik sertifikat beradi
6.Shartnoma majburiyatlarini tuzish	Byudjet tashkiloti	Byudjet tashkiloti
7.Ko'rsatilgan xizmatlar, bajarilgan ishlar va olingan tovarlar tasdig'ini berish	Byudjet tashkiloti	Byudjet tashkiloti
8.To'lovga hisob-kitobni tayyorlash	Byudjet tashkiloti	Byudjet tashkiloti
9.To'lov qog'ozini nazorati	Tijorat banklari	G'aznachilik
10.Pul mablag'larini o'tqazish bo'yicha bankka to'lov qog'ozini tayyorlash	Byudjet tashkiloti	G'aznachilik
11.Shartnoma majburiyatlarni dastlabki nazorati	Moliya vazirligi va moliya organlari	G'aznachilik organlari
12.Ichki audit	Nazorat-tekshiruv Boshqarmasi	Nazorat-tekshiruv Boshqarmasi
13.Tashqi audit	Hisob palatasi	Hisob palatasi

Belgilangan tartibga ko'ra, mazkur organlar va tashkilotlar Davlat byudjetining kassa ijrosini amalga oshirishda, uning mablag'larini boshqarishda, Davlat byudjeti mablag'larining tushumi va sarfi ustidan nazoratni amalga oshirishda g'aznachilikka ko'maklashishlari lozim.

²³ Davlat moliyasini isloh qilishning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallar. T.: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi moliya organlari va byudjet tashkilotlarining moliya-hisob bo'linmalari xodimlarini tayrlash va qayta tayrlash O'quv markazi, 2009 yil 2 dekabr.

G'aznachilik organlari o'z ish faoliyatida davlat soliq, bojxona xizmati organlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari, davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar, Davlat byudjetida mablag'lar olishi nazarda tutilgan yuridik shaxslar, shuningdek, byudjet jarayonining boshqa ishtirokchilari Davlat byudjetining g'azna ijrosiga tegishli ma'lumotlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda almashib turadilar.

Davlat byudjetining g'azna ijrosini amalga oshirishda tashkil etiladigan g'aznachilikning yagona hisob varag'ini alohida o'rni mavjud. G'aznachilikning yagona hisobvarag'i g'aznachilik tomonidan boshqariladigan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochiladigan maxsus bank hisobvarag' bo'lib, bu hisobvarag'ga Davlat byudjeti mablag'lari (shu jumladan, davlat maqsadli jamg'armalarining mablag'lari) hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari kiritiladi. Yagona g'azna hisobvarag'idan Davlat byudjetidan mablag'lar berilishi nazarda tutilgan yuridik va jismoniy shaxslarning xarajatlari to'lanadi, shuningdek, davlat maqsadli jamg'armalarining xarajatlari amalga oshiriladi.



2.2.2-rasm. O'zbekiston Respublikasi g'aznachilik tizimiga bosqichma bosqich o'tish elementlari²⁴

²⁴ Davlat moliyasini isloh qilishning dolzarb muommolari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallar. T.: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi moliya organlari va byudjet tashkilotlarining moliya-hisob bo'linmalari xodimlarini tayrlash va qayta tayrlash O'quv markazi, 2009 yil 2 dekabr.

Markaziy g'aznachilikni tashkil qilishdan maqsad - O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining ijrosi jarayonida mablag'larni samarali boshqarish, davlat buyurtmalarini va dasturlarini moliyalashtirishda tezkorlikni oshirish, byudjet daromadlari tushumini va davlat mablag'lari maqsadli sarflanishini nazorat qilishda tezkorlikni ta'minlashdir.

Markaziy g'aznachilik daromadlar va xarajatlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining ijrosida, byudjet hisobvarag'lari va mablag'larini boshqarishda aniq vakolatlarga ega va u O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining tashkiliy tizimi hisoblanadi. Markaziy g'aznachilik o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, Davlat qonunchiligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, farmonlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining ko'rsatma va yo'riqnomalari hamda boshqa me'yoriy - huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.


2.2.2-jadval

G'aznachilik tizimining tuzilmasi²⁵

№	Pog'onalar	Amalga oshiriladi
1.	Birinchi pog'ona	Respublika bo'yicha Markaziy g'aznachilik G'aznachilik hisobvaraqlaridagi mablag'lar harakatini boshqaradi va davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarning jamlanma hisobini yuritadi. Qonun bilan belgilangan tashkilotlarga byudjet ijrosi to'g'risida tegishli ma'lumotnomalar beradi. Quyi g'aznachilik idoralari ishini boshqaradi, ulardan byudjet daromadlari va xarajatlari to'g'risida ma'lumot va hisobotlarni qabul qiladi va quyi organlar tomonidan byudjetning ijrosini qonunchilikka binoan ta'minlaydi.
2.	Ikkinchi pog'ona	viloyat g'aznachilik boshqarmalari, mahalliy byudjetning daromad qismining shakllantirilishi va xarajatlarning amalga oshirilishini ta'minlaydi. Viloyat byudjeti mablag'larining harakatini boshqaradi. Mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlari hisobini yuritadi, quyi g'aznachilik organlari va byudjetdan moliyalashtiriladigan tashkilotlar faoliyatini nazorat qiladi.
3.	Uchinchi pog'ona	shaharlarda, tumanlarda va shaharlardagi tumanlarda g'aznachilik bo'linmalari, hududda byudjetning daromad qismining shakllantirilishi va byudjet muassasalar bo'yicha xarajatlarning maqsadli moliyalashtirilishini ta'minlaydilar. G'aznachilik hisobvaraqlarida mablag'lar harakati hisobini yuritadilar va hududda daromadlar va xarajatlar bo'yicha byudjet ijrosi to'g'risida yuqori g'aznachilik organlariga axborot beradilar.

²⁵ Davlat moliyasini isloh qilishning dolzarb muommalari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallar. T.: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi moliya organlari va byudjet tashkilotlarining moliya-hisob bo'linmalari xodimlarini tayrlash va qayta tayrlash O'quv markazi, 2009 yil 2 dekabr.

Davlat byudjetining g'aznachilik ijrosini tatbiq etishni bosqichma-bosqich amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasining "Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 27 dekabrda PQ-244 sonli "O'zbekiston Respublikasining 2006 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi qarori asos bo'ldi, 2006 yilda Davlat byudjetining g'azna ijrosining ayrim mexanizmlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahrida joriy qilindi. 2007 yildan boshlab ushbu mexanizm respublikamizning boshqa hududlariga ham joriy etildi. Ushbu jarayonlarni tartibga solish, g'aznachilik tizimini joriy qilish metodologiyasini ishlab chiqish hamda uni joriy etish uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat byudjetining g'aznachilik ijrosi metodologiyasi va uni joriy etish boshqarmasi tashkil etildi va tegishli moliya organlarida g'aznachilik tizimi joriy etildi. 2005 yil may oyida 1475-sonli "Byudjetdan mablag' oluvchilarning tovar (ish va xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan tuzgan shartnomalarini ro'yxatga olish va ular xarajatlari to'lovini nazorat qilish to'g'risida"gi vaqtinchalik Nizom qabul qilindi va unga asosan, g'aznachilik tizimi organlari faoliyat ko'rsata boshladi.



2.2.3-rasm. G'aznachilikda byudjet ruxsatnomalarini boshqarish²⁶

²⁶ Talaba tomonidan shakllantirildi


Nizomda belgilanganidek, byudjet mablaglari oluvchilarning iqtisodiy tasnif bo'yicha IV guruh xarajatlari g'aznachilik orqali nazorat etib boriladi.

Byudjet xarajatlari amalga oshirilishini boshqarishni mujassamlashtirish maqsadida:

1. Tegishli byudjet va Davlat maqsadli jamg'armalaridan xarajatlarning tegishli ruxsat orqali amalga oshirilishi hamda ularning hajmi yillik ajratmalar va xarajatlarni amalga oshirish ruxsati miqdoridan oshmasligi kerak.

2. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari xarajatlari tegishli ruxsat asosida amalga oshirilishi hamda byudjetdan tashqari daromadlar hajmi doirasida amalga oshiriladi.

3. Maqsadli grantlar va davlat qarzlarini hisobiga moliyalashtiriluvchi xarajatlar uchun xarajatlar tegishli ruxsat va amaldagi me'yor va qo'llanmalar asosida mavjud holda mablag'lar doirasida g'aznachilik organlarining tegishli ruxsati asosida amalga oshiriladi.



2.2.4-rasm. G'aznachilik to'lovlarni amalga oshirish²⁷

G'aznachilik to'lovlarini amalga oshirish byudjet mablag'lari oluvchilarning yuridik majburiyatlarni olishi asosida moliyaviy majburiyatlarini bajarishi, deb tushuniladi.

²⁷ Talaba tomonidan shakllantirildi

G'aznachilikda kassani rejalashtirish muhim ahamiyatga ega. Uning asosiy maqsadi:

- ✓ byudjet ijrosining o'z vaqtida bajarilishi;
- ✓ davlat boshqaruvi organlari va byudjet tashkilotlarining kredit qobiliyatining o'sishini ta'minlash;
- ✓ byudjet xarajatlarini minimallashtirish;
- ✓ kassaning holati va kassa oqimlari bo'yicha oldindan ma'lumot olish va ularni moliyaviy qarorlarni qabul qilishda foydalana olish imkoniyatini beradi.

Kassani boshqarishni takomillashtirish quyidagilardan iborat:

- ✓ byudjet tashkilotlarining barcha byudjetlarini o'z vaqtida ijro qilishni ta'minlash;
- ✓ xo'jalik sub'ektlarining byudjet to'lovlari muddatlari bilan bog'liq kredit qobiliyatini pasaytirish xavfini kamaytirish;
- ✓ xarajatlarni amalga oshirish va tushumlarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni, shu jumladan, foizlarni to'lash bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarni kamaytirish imkoniyatini beradi.

2.2.3-jadval

Davlat byudjetining g'azna ijrosi joriy yetish jarayonida G'aznachilik organlarining 2010-2013 yillardagi faoliyati samaradorligi

№	Erishilgan natija	summasi	summasi	summasi	summasi
		2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y (9 oy davri)
1.	Mablag'larining maqsadsiz Sarflanishning oldi olingan	90302,0	118081,4	208134,1	206439,4
2.	Asossiz kreditor qarzdorlik vujudga kelishining oldi olingan	40127,8	39245,2	76842,1	106892,3
3.	Yuqori narxda mahsulot (ish,xizmat) sotib olinishining oldi olingan	4654,6	6160,6	9987,6	10346,4
	Jami	135084,5	163487,2	294963,8	323678,1

Manba: O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan

G'aznachilikda kassani rejalashtirish va boshqarish belgilangan vaqt parametrlari bilan chegaralanadi:

1. Kassa rejalari vaqt davomiyligi 57 haftani tashkil qiladi. Kassa rejalari har haftada rasman yangilanib turiladi. Kassa rejalari yilning boshlang'ich 3 oyiga har bir ish kuni bo'yicha hamda qolgan 57 haftagacha bo'lgan muddatga har haftaga aniqlanishi kerak.

2.2.3-jadval ma'lumotlarida ko'rinib turibdiki, Davlat byudjetining g'azna ijrosi joriy yetish jarayonida G'aznachilik organlarining 2010-2013 yillardagi faoliyati samaradorligi yil sayin oshib borganligini ko'rish mumkin, ya'ni 2010 yilda jami 135084,5 so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2011 yilda 163487,2 so'mni, 2012 yilda 294963,8 so'mni, 2013 yil 9oy natijalariga ko'ra 323678,1 so'mni tashkil etgan.

2.3. G'aznachilik tizimi sharoitida mahalliy byujetlar xarajatlari ijrosining amaldagi holatini tahlili

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida mamlakatimizda katta yutuqlarga erishilib kelinmoqda. Bu erishilayotgan yutuqlarda albatta mahalliy hududlarning moliyaviy sohadagi olib borayotgan ishlari katta ahamiyatga egadir. Xududning ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilashga qaratilgan sarf-xarajatlarning yani mahalliy byudjet xarajatlarining manzilligi, kerakli miqdorlari o'z vaqtida kerakli joyga to'lanishi mahalliy hududning uzluksiz tarzda rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda mahalliy byudjetlarga ajratilayotgan mablag'lar yildan-yilga oshib bormoqda. Xorijiy mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, mahalliy byudjetning umumiy salmog'i 30% dan 60% gacha bo'lishi mumkin. Mahalliy byudjet xarajatlaridan oqilona foydalanish masalalarini hal etishda byudjet xarajatlarining iqtisodiy mohiyati, tarkibiy tuzilishi va ularning asosiy yo'nalishlari muhim ahamiyatga egadir.

Jamiyatning iqtisodiy hayotida ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishda davlat rolining oshishi byudjet xarajatlarining turli-tuman ko'rinishlarda bo'lishini

asoslaydi. Bu o'z navbatida bir qator omillar bilan bog'liqdir. Bo'lar jumlasiga quyidagi asosiy omillarni ko'rsatish mumkin:

- davlatning funkionalari va geografik joylashishi;
- mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi;
- davlatning ma'muriy-xududiy tuzilishi;
- byudjet mablag'larini berishning shakllari va shu kabilar.

Ushbu omillarni muvofiqlashtirish davlat rivojlanishining xar bir bosqichida iqtisodiyot ehtiyojlari, iqtisodiyotni boshqarish darajasi va ko'rinishlariga mos keluvchi xarajatlar tizimini keltirib chiqaradi. Byudjet xarajatlarini ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir etishiga ko'ra joriy va kapital byudjet xarajatlariga ajratiladi. Joriy byudjet xarajatlari yuridik shaxslarga o'zlarini saqlash va kundalik ehtiyojlarini qoplash uchun beriladigan moliyaviy mablag'larni ifodalaydi.

Mahalliy byudjetlar byudjet qonunchiligiga ko'ra, balanslashgan daromadlar va xarajatlar tizimiga ega bo'lishlari zarur. Mahalliy byudjetlarning haqiqatdagi taqchilligi bo'lishi mumkin emas.

Mahalliy byudjetlar xarajatlarini baholashning nisbatan asoslangan usuli ovqatlanish uchun xarajatlarning tibbiy me'yorlarini, ta'lim sohasida uslubiy materiallar va bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchi soni me'yorlarini, byudjet tashkilotlari uchun kommunal xizmatlari xarajatlari bo'yicha limitlarni va boshqalarni hisobga oluvchi yagona davlat me'yorlari asosida xarajatlarni moliyalashtirish maydonga chiqadi.

Mahalliy byudjetlar xarajatlarini taxminlashtirishda davlatning yagona me'yorlarini qo'llashda yuqorida bildirilgan holatlarning e'tiborga olinishi mahalliy moliya organlari va Moliya vazirligi o'rtasidagi xarajatlarni taxminlashtirish amaliyotidagi kelishmovchiliklarni minimallashtirish imkonini beradi.

Quyidagi jadvaldan ko'rishimiz mumkinki mahalliy byudjet xarajatlari 2011 yildan 2013 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. 2011 yilda jami mahalliy byudjet xarajatlari 9 192 352,4 mln. so'mni tashkil etgan bo'lsa 2012 yilda 11 698 055,4 mln so'm bo'lgan bo'lsa, 2013 yil bu ko'rsatgich 14 185 758,4

mln.so'm ko'rsatgichiga egadir. Mahalliy byudjetlar xarajatlarida salmog'i bo'yicha 2011 yilda Andijon viloyati 8,6% ni Qashqadaryo viloyati 9,1% ni, Samarqand viloyati 11,9% ni, Farg'ona viloyati 10,6 % ni tashkil etgan eng kam salmog'ga ega bo'lgan xudud bu Sirdaryo 2,9% va Navoiy viloyati 4,0 % ni tashkil etgan. 2012 yil ko'rsatgichlari qaraydigan bo'lsak Andijon viloyati 8,4 foizni, Qashqadaryo viloyati 8,9% ni tashkil etib, o'tgan yilgi ko'rsatgichlarga nisbatan 0,2% kamni tashkil etganligiga qaramay miqdorida o'sish kuzatilgan. Samarqand viloyati 11.1% ni tashkil etib mikdor jihatdan o'sgan, lekin jami mahalliy byudjet xarajatlarida salmog'i 0,7% ga kamaygan Farg'ona viloyati 10,7 % ni tashkil etgan eng kam salmog'ga ega bo'lgan hudud bu Sirdaryo 2,9% va Navoiy viloyati 3,8 % ni tashkil etgan. 2013 yil rejalashtiridgan xarajatlarni tahlil qiladigan bo'lsak Andijon viloyati 1 178 798,2 mln so'mni tashkil etgan va jami xarajatlarda 8,3% ni tashkil etgan, Qashqadaryo viloyati 1 245 654,2 mln.so'mni tashkil etib salmog'i 8,8% ni tashkil etgan, Samarkand viloyati 1 500 597,5 mln. so'mni taskil etib salmog'i 10,6 % ni tashkil etgan. Barcha viloyatlarni umumiy olib tahlil qiladigan bo'lsak mahalliy byudjet xarajatlari salmog' jixatdan kamayish kuzatilgan bo'lsada lekin miqdor jihatdan yildan yilga o'sgan.

2011-2013-yillarda Chilonzor tumani ijtimoiy soha xarajatlarini bajarilishi tahlilini ko'radigan bo'lsak 2011 yilda iqtisodiyot uchun xarajatlar bajarilishi 96,8% ni tashkil etgan bo'lsa 2012 yil va 2013 yilda iqtisodiyot uchun xarajatar 96,3% va 97,5 % nitashkil etgan. Shu yillarda iqtisodiyot uchun kassa xarajatlari 799 934 mln.so'm, 1 325 568 mln.so'm, 1 897 037 mln. so'mni tashkil etgan.

Umumiy talim xarajatlari ijtimoiy xarajatlarda katta samog'ga ega bo'lgan xarajatdir. Umumiy talim xarajatlari mahalliy xududning ijtimoiy siyosiy hayotida katta ahamiyatga ega. Umumiy ta'lim xarajatlarining bajarilishi 2011-2013 yillarda mos ravishda 94,7%, 98,5% va 96.3% ni tashkil etib kassa xarajatlari 15 775,4 mln.so'm, 21 681,08 mln. so'm va 29 376,13 mln. so'mni tashkil etgan.

2.3.1-jadval

Chilonzor tumani ijtimoiy soha xarajatlarini bajarilishi tahlili

(Mln.so'm)

№	Xarajatlar nomi	2011 yil			2012 yil			2013 yil		
		Aniklangan reja	Kassa	Bajarilishi (%)	Aniklangan reja	Kassa	Bajarilishi (%)	Aniklangan reja	Kassa	Bajarilishi (%)
1	Iqtisodiyot uchun xarajatlar	826378	799934	96,8%	1376498	1325568	96,3%	1945678	1897037	97,5%
Ijtimoiy soha xarajatlari										
1	Umumiy talim	16658,3	15775,4	94,7%	22011,24	21681,08	98,5%	29376,13	28289,21	96,3%
2	Madaniy va ommaviy axborot vositalari uchun sarf xarajatlar	85,5	84,3	98,6%	141,09	132,91	94,2%	182,05	172,04	94,5%
3	Sog'liqni saqlash	4906,2	4636,4	94,5%	4553,77	4271,43	93,8%	6214,17	6127,17	98,6%
4	Ijtimoiy taminot	28,4	27,2	96,0%	38,25	36,22	94,7%	46,78	45,05	96,3%
5	Ijtimoiy madaniy tadbirlarga qilinadigan sarf xarajatlar	21763,9	20523,4	94,3%	26573,38	26121,63	98,3%	36649,18	34633,47	94,5%

Manba:Chilonzor tuman moliya bo'limi hisobotlari asosida tayyorlandi.

Madaniy va ommaviy axborot vositalari uchun sarf-xarajatlar 2011-2012 yillarda mos ravishda 98,6%, 94,2% va 94,5% ga bajarilgan bo'lib kassa xarajatlari 84,3 mln. so'm, 141,09 mln. so'm va 172,05 mln. so'mni tashkil etgan.

Sog'liqni saqlash xarajatlari ham mahalliy byudjet xarajatlari etarli katta salmog'ga ega bo'lib Chilonzor tumanida mazkur xarajatlar 2011, 2012, 2013 yillarda deyarli 100% ko'rsatgida bajarilgan.

Sog'liqni saqlash kassa xarajatlari 2011 yilda 4636 mln. so'mni, 2011 yilda 4271,43 mln. so'mni, 2013 yilda 6127,17 mln. so'mni tashkil etgan.

Ijtimoiy madaniy tadbirlarga qilinadigan sarf-xarajatlar 2011 yilda 20523,4 mln. so'mni tashkil etgan. 2012 yilda kassa xarajatlari ijrosi yaxshi natijaga erishilgan, ya'ni xarajatlarning bajarilishi aniqlangan (26573,38 mln. so'm) rejaga nisbatan 98,3% (26121,63 mln.so'm) ga bajarilgan.

2.3.2-jadval

Chilonzor tuman mahalliy byudjetining kassa xarajatlari

ming so'mda				
№	Xarajatlar nomi	2011 yil	2012 yil	2013 yil
1	Iqtisodiyot uchun xarajatlar	799 934	1 325 568	3 897 037
2	Umumiy talim	15 775 446	21 681 075	35 289 211
3	Madaniyat va Ommaviy axborot vositalari	84 318	132 906	172 035
4	Sog'liqni saqlash	4 636 372	4 271 432	6 127 173
5	Ijtimoiy taminot	27 221	36 221	45 052
6	Ijtimoiy madaniy tadbirlarga qilinadigan xarajatlar	20 523 357	26 121 634	14 633 471
7	Davlat boshqaruv organlarini saqlash xarajatlari	262 666	363 328	272 657
8	Fuqarolarni o'zini-o'zi saqlash organlarini saqlash xarajatlari	345 569	460 976	610 627
9	Boshqa sarf-xarajatlar	41 140	58 700	103 590
10	Rag'batlantirish va mukofotlarni to'lash bo'yicha xarajatlar	12 400	15 840	19 240
11	Turmush farovonligini oshirish bo'yicha xarajatlar	1 906 305	2 656 997	3 037 910
Jami		44 414 728	57 124 677	64 208 003

Manba: Chilonzor tuman moliya bo'limi hisobotlari asosida tayyorlandi


Umuman olganda mahalliy byudjetda uch yilda xarajatlarning ijrosi dinamikasi o'sish tendensiyasiga ega bo'lib yildan-yilga yaxshilanib optimallashtirib bormoqda.

Mahalliy hududda yildan yilga mahalliy byudjetdan amalga oshiriladigan xarajatlar miqdori ko'payib bormoqda, bu esa mahalliy moliya organlarining ma'lum o'sha xududdagi rolini yanada oshirmoqda.

Buning yaqqol misoli tariqasida 2.3.3-jadvaldagi raqamlarni keltirsak bo'ladi. Misol uchun Chilonzor tuman mahalliy byudjetining kassa xarajatlari 2011 yilda jami xarajatlar 44 414 728 ming. so'mni tashkil etgan bo'lsa 2013 yilga kelib esa bu ko'rsatkich 64 208 003 ming so'mni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich ikki yil

mobaynida deyarli xarajatlarning yani kassa xarajatlarning 45 % ga oshganligidan dalolat beradi.

Mahalliy byudjetdan amalga oshirilgan kassa xarajatlarining tahlilini amalga oshirish jarayonida shunga guvoh bo'lish mumkinki xarajatlar ichida ijtimoiy soha xarajatlari katta salmog'ga egaligini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Yani 2011, 2012, 2013 yillarda ham Umumiy talim xarajatlari jami xarajatlarda 55% dan katta salmog'ga egadir. Sog'liqni saqlash xarajatlari va ijtimoiy-madaniy tadbirlarga qilinadigan xarajatlar ham umumiy ta'lim xarajatlaridan keyingi turuvchi xarajatlardir. Rag'batlantirish va mukofotlarni to'lash bo'yicha xarajatlar va boshqa sarf-xarajatlar yildan-yilga salmog'i o'sib 2011 yil 41 140 ming.so'm, 2012 yil 58 700 ming.so'm va 2013 yil esa 103 590 ming.so'm ni tashkil etgan. Turmush farovonligini oshirish bo'yicha xarajatlar 2011 yilda 1 906 305 ming.so'mni, 2012 yil 2 656 997 ming. so'mni va 2013 yilda esa 3 037 910 ming. so'mni tashkil etgan. Chilonzor tumani mahalliy byudjetida kassa xarajatlari 2011 – 2013 yillarda deyarli 98 % dan ortiq ijro etilgan. Bu g'aznachilik organlirining nafaqat byudjet tashkilotlarining byudjet intizomiga qonun-qoidalariga rioya qilinganligidan dalolat beradi.



Manba:Chilonzor tuman moliya bo'limi hisobotlari asosida tayyorlandi.

2.3.1-rasm. Chilonzortumani mahalliy byudjeti ijtimoiy-madaniy tadbirlarga qilinadigan sarf-xarajatlar va jami xarajatlarining o'sish surati

Chilonzor tuman mahalliy byudjetida ijtimoiy madaniy sohaga qilinadigan sarf-xarajatlar va jami mahalliy byudjet xarajatlari 2011-2013 yillarda o'sish suratisiga ega. Buni quyidagi diagrammadan yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Mahalliy byudjet xarajatlari ijrosining ajralmas qismi bu mahalliy g'aznachilik bo'limlarinig faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Chilonzor tuman g'aznachilik bo'linmasi mahalliy byudjetidan mablag' oluvchilarning xarajatlarni to'lab berish bo'yicha 01.04.2013 yil holatiga va 01.04.2014 yil holatiga ko'rsatkichlarni quyidagi jadval orqali tahlil qilamiz. (3-ilovaga qarang).

2013 yil davomida to'lab berilgan to'lov topshiriqnomalari soni 19296 tani tashkil etgan bo'lsa, bu topshiriknomalarning jami summasi 40 326 360,94 ming so'mni tashkil etgan qaytarilagan to'lov topshiriqnomalari jami soni 679 ta va summasi 2 039 070,7 ming so'mni tashkil etgan. Qaytarilgan to'lov topshiriqnomalarning 53 tasi yani 72 204,5 ming so'mlik to'lov topshiriqnomasi shartnomasiz taqdim qilingan to'lov topshiriqnomalaridir. To'lov topshiriqnomalarning 127 tasi yani 340 671,56 ming so'mga teng topshiriqnomalar shartnoma sumasidan ortiqcha taqdim qilingandir. Hisob faktura summasidan ortiqcha taqdim qilingan, smetadan ortiqcha taqdim qilingan va boshqa sabablarga ko'ra noto'g'ri topshirilgan to'lov topshiriqnomalari jami 451 tani tashkil etib jami summasi 1 272 774 ming so'mni tashkil etgan.

2014 yil 1-chorak davomida to'lab berilgan to'lov topshiriqnomalari soni 19656 tani tashkil etgan bo'lsa, bu topshiriqnomalarning jami summasi 42 962 295,20 ming so'mni tashkil etgan qaytarilagan to'lov topshiriqnomalari jami soni 182 ta va summasi 198 511,8 ming so'mni tashkil etgan. Qaytarilgan to'lov topshiriqnomalarning 11 tasi yani 10 356 ming so'mlik to'lov topshiriqnomasi shartnomasiz taqdim qilingan to'lov topshiriqnomalaridir. To'lov topshiriqnomalarning 31 tasi yani 24 265,4 ming so'mga teng topshiriqnomalar Shartnoma sumasidan ortiqcha taqdim qilingandir. Hisob faktura summasidan ortiqcha taqdim qilingan, Smetadan ortiqcha taqdim qilingan va boshqa sabablarga ko'ra noto'g'ri topshirilgan to'lov topshiriqnomalari jami 128 tani tashkil etib jami summasi 134 357 ming so'mni tashkil etgan. Chilonzor tumani mahalliy byudjeti

bo'yicha mahalliy byudjetdan mablag' oluvchilarning shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha ma'lumotni tahlil qiladigan bo'lsak mahalliy byudjet ijrosida moliyaviy majburiyatlar faqatgina yuridik majburiyatlarning g'aznachilik organlarida o'rnatilgan tartiblarda ro'yxatdan o'tkazilgandan keyingina amalga oshiriladi.

Chilonzor tumani mahalliy byudjeti bo'yicha mahalliy byudjetdan mablag' oluvchilarning shartnomalarini ro'yxatdan o'tishining 2013 yildagi xolatini tahlil qiladigan bo'lsak mahalliy byudjetdan mablag' oluvchilar soni 111 tani tashkil etadi va mahalliy byudjetdan mablag' oluvchilarga ochilgan shaxsiy hisob varaqlari soni 122 tani tashkil etadi. Byudjetdan tashqari mablag'lar uchun ochilgan hisob raqamlar esa (4002, 4005, 4007, 4006, 4001, 4999, 4003, 4011) 378 tani tashkil etadi. (4-ilovaga qarang).

2013 yil davomida ro'yxatga olingan shartnomalar soni 4773 tani tashkil etib, 173 ta shartnoma joriy nazorat raytida ro'yxatga olinmagan. Bu ro'yxatga olimagan shartnomalarning jami summasi 6 914 mln. so'mni tashkil etadi. Joriy nazorat davomida maqsadsiz taqdim etilgan shartnomalar 37 ta bo'lib summasi 2145 mln. so'mni, smetadan ortiqcha taqdim etilgan shartnomalar 60 tani summasi esa 3338 mln. so'mni oshgan summa esa 378 mln. so'mni tashkil etib, mahalliy byudjetdan ortiqcha 378 mln. so'm xarajat bo'lishi oldi olingan. Xuquqshunos xulosasi va boshqa sabablarga ko'ra ro'yxatdan o'tkazilmagan shartnomalar 52 tani tashkil etib jami summasi 1044 mln. so'mni tashkil etgan.

Chilonzor tumani mahalliy byudjetida mahalliy byudjet xarajatlari ijrosi umumiy qilib olinganda yildan yilga ijobiy tarafga o'zgarib bormoqda va joriy va boshlang'ich nazoratlar ijobiy yo'lga qo'yilgan. Mahalliy byudjet xarajatlari uzluksiz tartibda amalga oshirilmoqda. Chilonzor tuman mahalliy byudjet xarajatlarining ijrosi so'ngi uch yil mobaynida byudjet intizomiga rioya qilgan holda deyarli har yili 98 % dan ortiq amalga oshirilib kelmoqda.

Ikkinchi bob bo'yicha hulosalar.

Magistrlik dissertasiya ishimizda g'aznachilik tizimi sharoitida mahalliy byudjetlar xarajatlar ijrosini tashkil etish holati tahlilini ko'rib chiqishda bugungi kunda g'aznachilikdan xarajatlarni moliyalashtirishga sertifikatlar berilishi masalalarini, mahalliy byudjetlar xarajatlar ijrosi jarayonida ijro organlari funktsional majburiyatlarni taqsimlanishi holati, O'zbekiston Respublikasi g'aznachilik tizimiga bosqichma bosqich o'tish elementlari va bunda erishilgan natijalar, g'aznachilik tizimining tuzilmasi va bunda g'aznachilik to'lovlarni amalga oshirish jarayoni tahlilini olib borishda davlat byudjetining g'azna ijrosi joriy yetish jarayonini tahlil qildik.

Mahalliy byudjetlar xarajatlar ijrosida mablag'laridan foydalanish va uni nazorat etishning hozirgi holatini ko'rib chiqish jarayonida 2010-2013 yillarda O'zbekiston Respublikasi mahalliy byudjetlari o'rtasida byudjet xarajatlarning taqsimlanishi, davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini mustaxkamlashda mahalliy byudjetlar nazoratini tashkil etishdagi ahamiyati ko'rib chiqildi.

Tahlillarimiz natijasida shu narsaga amin bo'ldikki, byudjetni ijro etilishida g'aznachilik tizimiga o'tish byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanishning, harajatlarning aniq vaqt davomida va tezkorlik bilan amalga oshirish hamda mablaglar nazorati ta'minlanmoqda. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar yanada chuqurlashtirilayotgan davrda, ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida bo'lgani kabi moliya, byudjet ijrosi tizimida ham olib borilgan iqtisodiy islohotlar o'z natijasini bermoqda.

Biz tadqiq olib borgan mahalliy byudjet xarajatlari ijrosida rejaga nisbatan kassa xarajatlari 94-99 foizga bajarilganligini guvohi bo'ldik. Bu ko'rsatkichlar orqali mahalliy byudjet xarajatlardan maqsadli va manzilli foydalanishda g'aznachilikning ahamiyatini ko'rishimiz mumkin. umumiy qilib olinganda yildan yilga ijobiy tarafga o'zgarib bormoqda va joriy va boshlang'ich nazoratlar ijobiy yo'lga qo'yilgan.

III-bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mahalliy byudjetlar xarajatlari samaradorligini oshirish yo'llari

3.1. Mahalliy byudjetlar xarajatlari samarali ijrosini ta'minlashda g'aznachilik tizimini rivojlantirish istiqbollari

Davlatning iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi asosiy vazifalaridan biri bu – bozor iqtisodiyotida bozor mexanizmlarini o'zgartirish emas, balki uning erkin harakat qilishi uchun sharoit yaratishdan iboratdir. Jahon hamjamiyatiga dadil kirayotgan mamlakatimizda ham makroiqtisodiy barqarorlikka erishish hamda uni G'aznachilik instituti orqali amalga oshirish maqsadida 2006 yil 1 yanvardan e'tiboran amalga kiritilgan "Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, shuningdek, bir qancha huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ammo Respublikada ustunligi tan olingan mazkur institutni joriy etish va rivojlantirish jarayoni ancha yuqori sur'atlarda kechayotgan bo'lsada, hozirgi vaqtda g'aznachilik tizimidan foydalanishning samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy sharoitlarini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Byudjetning g'aznachilik ijrosi moliya xodimlari zimmasiga byudjet harajatlarini rejalashtirish, taqsimlash va byudjet mablag'laridan foydalanish nazorati umumlashtirish mas'uliyatini yuklaydi. G'aznachilikning bosh kitobini yuritish, byudjet tushumini boshqarish, xarajatlarni moliyalashtirishga ruxsat berish, byudjet tashkiloti shartnomalari va naqd pullarni boshqarish, davlat qarzini va shartli majburiyatlarini hisoblash, moliyaviy hisobotlarni tayyorlash kabi faoliyat turlari ichida xarajatlarga ruxsat berish alohida o'rin tutadi. G'aznachilik joriy etilishi bilan davlat byudjetining daromad qismi ijrosi tijorat banklari tomonidan emas, balki g'aznachilik tizimi orqali amalga oshiriladi. Bunda Moliya vazirligi byudjet tizimining barcha darajadagi byudjetlarga tushumlarning manbalari bo'yicha soliqlar yig'ilishi to'g'risida, byudjet tasnifi asosida va mahalliy byudjet harajatlarining g'azna ijrosi bo'yicha har kuni axborot olishi mumkin.

G'aznachilik tomonidan davlat byudjetining xarajatlar va daromadlar qismi ijrosi to'g'risidagi hisobot tuziladi. Byudjetning ijro etilishida g'aznachilik

tizimiga o'tish byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanish, boshqaruv organlari xarajatlarini qisqartirishning imkoniyatini beradigan to'g'ri yo'llardan biridir. G'aznachilik tizimi davlat xazinasiga tushumlarni qabul qiladi, harajatlarni amalga oshiradi va qolgan mablag'lar uning maxsus hisob raqamida qoladi. Bu tizimning ijobiy tomonlari talaygina bo'lsada, afsuski, hozirgi kunda undan kam foydalanilmoqda. G'aznachilik – Moliya vazirligining konsolidatsiyalashgan byudjetning kassa ijrosi uchun, davlat daromadlari va xarajatlari hisobi olib borilishi uchun davlat harajatlariga moliyaviy resurslarni etarli bo'lishini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'limidir.

O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik institutini joriy qilish masalasi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni modernizatsiyalashtirish borasida ishlarning muhim qismi hisoblanadi.

G'aznachilik tizimini joriy qilish evaziga respublikada davlat moliyasini boshqarish samarasini oshirish yo'lida jiddiy rivojlanish yuz beradi. Qolaversa, shu orqali mamlakatda iqtisodiy islohotlarni yanada jadallashtirish bo'yicha xalqaro moliyaviy institutlarning tavsiyalari o'zining real ko'rinishiga ega bo'ladi.

Respublikamizning o'ziga xos sharoitlarini (murakkab unitar davlatligi, respublika, viloyat, tuman va shahar bo'g'inlari, mamlakatda markazlashtirilgan hoqimiyat mavjudligi va h.k.) e'tiborga olgan holda g'aznachilik tizimining respublikamizda markazlashtirilgan turi joriy qilinishi maqsadga muvofiq. Respublika Bosh g'aznasi Moliya vazirligi huzurida bo'ladi va u o'z faoliyati davomida unga bo'ysunadi, respublika Bosh g'aznachisi ayni paytda Moliya vazirining o'rinbosari ham hisoblanadi. Respublika hududlarida Qoraqalpog'iston Respublikasi g'aznasi, viloyatlar, Toshkent shahri, barcha tumanlar, shaharlar g'aznalari tashkil etiladi va ularning boshliqlari yuqori g'aznachilik organi rahbariga bo'ysunadi; G'aznachilik tizimi mamlakatda bosqichma-bosqich joriy qilinadi. G'aznachilik tizimining Yagona hisob raqami tashkil qilindi. Bunda xarajatlar to'lovi va mablag'larni o'tkazish to'g'ridan-to'g'ri tovarlar va xizmatlar etkazib beruvchilar, boshqa huquqiy shaxslarga Yagona g'aznachilik hisob

raqamidan o'tkazib beriladi. YaG'HRda maqsadli jamg'armalar mablag'lari ham jamlanadi.

Xarajatlarni o'z vaqtida moliyalashtirilishiga erishish va Moliya vazirligini qarzlarni olishini kamaytirish maqsadlarida qisqa muddatli moliyaviy rejalashtirishni (ichki yillik) joriy qilish ko'zda tutiladi. Barcha byudjet tashkilotlarining hisob raqamlari yopiladi. Bosh g'azna Moliya vazirligiga davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari qismlarining kassa ijrosi haqida ma'lumotlar berib boradi.

Respublikada g'aznachilik institutini joriy qilinishi byudjetni tayyorlash jarayonini takomillashtirish, o'rta muddatli fiskal istiqbollash va byudjet siyosatini olib borishni joriy qilish, byudjet ijrosi sifatini soliqlar yig'ish faoliyatini takomillashtirish va xarajatlarni g'aznachilikning Yagona hisob raqami printsipli asosida amalga oshirish, qisqa muddatli moliyaviy rejalashtirish, ya'ni to'lovlar rejasini joriy qilish, yagona axborotlar tizimi joriy qilish evaziga byudjet ijrosini hisobga olish va hisobot tayyorlashni yaxshilash, davlat qarzini hisobga olish, tahlil qilish va rejalashtirish takomillashtirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasida "Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish" loyihasining muhim tarkibiy qismi bo'lib g'aznachilikning axborot tizimini shakllantirish masalasi hisoblanadi. Axborotlar tizimi Moliya vazirligini barcha byudjet bo'g'inlaridagi byudjet va nobyudjet operatsiyalari haqidagi zaruriy, ishonchli va haqiqiy ahvolni ko'rsatadigan axborotlar bilan ta'minlaydi. Loyiha bosqichma-bosqich joriy qilinishi maqsadga muvofiq. Uning boshlang'ich bosqichida mudofaa va huquq-tartibot organlarini moliyalashtirish shu kunga qadar amal qilib kelingan qoidalar asosida amalga oshiriladi. Byudjet tashkilotlari tomonidan hisobotlarni tayyorlash qoidalari ham g'aznachilik tizimi joriy qilingandan bir yil keyin ham o'zgarmas ravishda davom ettiriladi. Ikkinchi yildan boshlab butun tizim g'aznachilik tizimi qonun-qoidalari asosida faoliyat ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimi faoliyatidagi asosiy muammolar va ularni bartaraf etish masalalarini ko'rib chiqar ekanmiz avvalambor, quyidagilar g'aznachilikning asosiy vazifalari hisoblanadi:

Davlat budjetining kassa ijrosi, jumladan tushadigan daromadlarni turli

darajadagi budgetlar o'rtasida taqsimlash, budgetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi va Davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi hisobot tuzish;

Davlat budjeti mablag'larini yagona g'aznachilik hisob raqami, shuningdek tegishli budgetlar daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi kassa uzilishlarining oldini olishni ta'minlaydigan hududiy g'aznachilik hisob raqamlarini joriy etish orqali boshqarish;

Budget tashkilotlarining tovarlar etkazib beruvchilar (ishlarni bajaruvchilar, xizmatlar ko'rsatuvchilar) bilan shartnomalarini, shuningdek Davlat budjeti mablag'lari hisobidan kapital qurilish bo'yicha buyurtmachilarning shartnomalari (keyingi o'rinlarda budget tashkilotlari va buyurtmachilar shartnomalari deb ataladi) xarajatlar smetasida ko'rsatilgan summalar va maqsadlarga qat'iy muvofiq ravishda tuzilishi ustidan qattiq nazorat o'rnatish asosida mazkur shartnomalarni majburiy ro'yxatdan o'tkazish tartibini joriy etish orqali budget tashkilotlarining maqsadga nomuvofiq, asossiz xarajatlarning oldini olish;


Budget tashkilotlarini, shu jumladan, mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan budget mablag'laridan foydalanishni maqbullashtirish yuzasidan monitoring olib borish, bunda ular tomonidan tuzilayotgan shartnomalarning sifati ta'minlanishini, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo echimini nazarda tutish hamda qoidaga ko'ra, vositachilik xizmatlaridan voz kechish;

Xarajatlar smetasi va ro'yxatga olingan shartnomalarda nazarda tutilgan qat'iy summalar doirasida tovarlar etkazib beruvchilar (ishlarni bajaruvchilar, xizmatlar ko'rsatuvchilar)ning bevosita hisob raqamlariga budgetdan mablag' oluvchilar nomidan va ularning topshirig'i bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish orqali to'lov intizomiga so'zsiz rioya etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash;

Davlat budjeti g'azna ijrosining buxgalterlik hisobi va hisobotini yuritish, Davlat budjeti ijrosi haqida axborotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish, shuningdek O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini ijro etish hisoblanadi.

Hozirgi kunda Respublikaning barcha hududlarida g'aznachilikning ikkita elementi joriy qilingan:

- shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish;
- to'lovlarning amalga oshirilishini nazoratini ta'minlash.



3.1.1-rasm²⁸. Budjetni ijro qilish jarayonidagi g'aznachilik tizimida nazorat qilish ko'rsatkichlarni


O'zbekiston Respublikasi prezidentining “Davlat budjeti g'azna ijrosining yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2007yil 28 fevralda PP-594 sonli qarori qabul qilingan. Ushbu qarorning maqsadi: Davlat budjetining g'azna ijrosini tatbiq etish hisobiga budjet tizimini yanada isloh qilish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda budjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, barcha darajalardagi budjet daromadlari va xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirish, g'aznachilikning vazifa va funksiyalarini amalda to'g'ri qo'llanilishini amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi tarkibiy tuzilmasini belgilashdan iboratdir. Ushbu qarorning hududlarda ijrosini amaldagi holatining tahlili quyidagicha ya'ni, 2007 yil 1 oktyabr holatida g'aznachilik tizimining elementlaridan bo'lmish shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish va byudjatdan mablag' oluvchilarning xarajatlar

²⁸ Xaydarov M. G'aznachilik tizimining ahamiyati. Soliq soliq va buxgalteriya hisobi. 2007 yil. 1-soni

to'lovini nazoratini amalga oshirishi 600 dan ziyod Toshkent shahrida joylashgan respublika budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlarini o'z ichiga qamrab olgan, mahalliy budjetlarda joylashgan respulika budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari 20 mingdan ziyod.

G'aznachilik tizimining O'zbekistonda joriy qilinishi orqali quyidagilarga erishildi:

- Quyi turuvchi budjetdan mablag' oluvchilarni ko'p pag'onali moliyalashtirishga chek qo'yildi;
- Budjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlari to'lovi, xarajatlar smetasidagi har bir guruh xarajatlarining moddalari bo'yicha moliyalashtirish imkoniyati mavjud;
- To'lovlarni amalga oshirish muddatlari qisqartirildi.



3.1.2-rasm²⁹. Davlat budjetini g'aznachilik tizimida ijro etishning ijobiy tomonlari

²⁹ Talaba tomonidan shakllantirilgan

O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimi faoliyatidagi asosiy muammolarni ko'rib o'tadigan bo'lsak:

- G'aznachilikning yagona hisob raqamini takomillashtirish;
- Kompyuter tizimlarini modernizatsiyalash;
- YaG'H asosida boshqaruv ishlarini amalga oshirish ta'minlash shartlarini muvofiqlashtirish;
- Xorijiy mamlakatlarda YaG'Hni joriy qilish tajribasini o'rgangan holda uni samarali baholash;
- YaG'Hning ahamiyatlilik darajasini (hisob sohasida, pul oqimlarini boshqarish sohasida) oshirib borish.
- Naqd pulli muomalani boshqarish;
- Qat'iy belgilangan xarajatlar asosida qoldiq qiymatlarini boshqarish;
- Qoldiq mablag'lar monitoringi va boshqaruvi usullarini takomillashtirish;
- Qoldiq mablag'lardan mukammal foydalanish hisobini tuzish yo'llarini o'rganish va uni yanada takomillashtirish.
- Respublikamizda g'aznachilik bo'limlaridagi kadrlar kasbiy malakasi oshirish.

3.2. Mahalliy byudjetlarning xarajatlari samaradorligini oshirish yo'llaru

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, mazkur tizimni takomillashtirish bilan byudjet bajarilishini kuzatish, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda qulaylik yaratish, byudjet mablag'larini maqsadsiz sarflanishidan himoyalash va byudjetni rejalashtirish va prognozlashtirish sifatini oshirish mumkin. G'aznachilikni joriy etish byudjetning daromadlar qismida tushumlarning tushishini va byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishining nazoratini kuchaytirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasining viloyatlari bo'yicha g'aznachilik boshqarmasida tezkor hisobotlar detallashtirilgan ma'lumotlar asosida tuziladi, byudjet xarajatlarini moliyalashtirishga o'tkazilishi kerak bo'lgan byudjet tushumi summasi vedomosti tuziladi. O'zbekiston Respublikasining viloyatlari bo'yicha

g'aznachilik boshqarmasi tomonidan byudjet xarajatlarini moliyalashtirishga byudjet tushumlari miqdorini to'lov qog'ozlari orqali o'tkazish yo'li bilan amalga oshiradi.

G'aznachilikning organlari byudjetdan mablag' oluvchilardan boshqarish funksiyalarini tortib olmaydi.

G'aznachilikning Bosh Boshqarmasi byudjetning bajarilish jarayonini yaxshilash uchun ularni yanada kengroq axborotlar bilan ta'minlaydi. Byudjet tasnifi bo'yicha berilgan xarajatlar to'g'risidagi axborotlar butun yil bo'yi xarajatlar tendensiyasini va xarajatlarni amalga oshirish uchun qo'shimcha kerak bo'ladigan ehtiyojlarni aniqlashga yordam beradi. G'aznachilikning faoliyat ko'rsatishi nahd pullarni to'g'ri va samarali boshqarish yo'li bilan byudjetga ishonchni mustahkamlashga yordam beradi.

Daromadlar rejasi bajarilmagan holatda, boqimandalik muammosini yechishga harakat qiladi.

G'aznachilikning tizimining modullarini kelgusida takomillashtirish yo'nalishlari, asosan, axborot tizimining rivojlani-shi, moliyaviy rejalashtirish va pullarni boshqarish usullarini takomillashtirish bilan bog'liq bo'ladi. Ya'ni, ushbu sohadagi fan-texnika taraqqiyoti hamda ijtimoiy joyalarni rivojlanishi bilan birgalikda yuksalib boraveradi. Bundan tashqari, g'aznachilikning tizimida boshlang'ich pog'onalarda hisob-kitob kassa usuli bilan amalga oshirilsa, kelgusida g'aznachilikning tizimida hisob-kitob ishlari hisoblash usuliga o'tkazilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hozirgi kunga kelib tashkil etilgan g'aznachilik bo'limlari joriy ta'mirlandi, zamonaviy komp'yuter texnikasi, ofis mebeli va kerakli asbob-uskunalar bilan ta'minlandi.

Bu borada avvalambor, tashkil etilayotgan g'aznachilik bo'linmalarini tajribali va malakali kadrlar bilan ta'minlash, mazkur soha uchun kadrlar tanlashda ularning professional bilimiga alohida e'tibor berilmoqda va tanlov asosida g'aznachilik tizimi xodimlari ishga qabul qilinmoqda.

Hozirgi paytda g'aznachilik organlari xodimlarini qayta tayyorlash Respublika O'quv markazida uch haftalik o'quv Dasturi asosida amalga oshirilmoqda. G'aznachilik tizimi, moliya organlari va byudjet tashkilotlarining hisobot moliya xodimlarini qayta tayyorlashni tashkil etish uchun "O'quv markazi" faoliyat olib bormoqda.

Ma'lumki, davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimini takomillashtirishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- davlat byudjeti mablag'larini samarali boshqarish;
- byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanish ustidan nazoratni yanada kuchaytirish;
- davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobotlar sifatini oshirish va ularni tayyorlash muddatlarini qisqartirish.

Moliyaviy nazorat, uning turlaridan biri bo'lgan byudjet nazoratining quyidagi shakllari mavjud: dastlabki nazorat; joriy nazorat; yakuniy nazorat.

Dastlabki byudjet nazorati turli darajadagi byudjetlar loyihalarini tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash; daromad va xarajatlar smetasini tuzish va tasdiqlash, byudjet amaliyotiga taalluqli qonun loyihalarini ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida amalga oshiriladigan nazorat shaklidir. U moddiy va moliyaviy resurslarni noratsional ishlatilishining oldini olishga xizmat qiladi. Nazoratning bu shakli

Xo'jalik operatsiyalarining byudjet yilining boshlanishidan oldinroq qonunlar va me'yoriy xujjatlar talablari buzilishining oldini oladi. Masalan, moliya organlari har byudjet yilining birinchi choragida barcha byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetalarining to'g'ri tuzilishi, tasdiqlanishi va o'z vaqtida molyalashtiruvchi organga yetkazilishi ustidan dastlabki nazoratni o'tkazadilar .

Joriy nazorat pul bitimlarini, moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish cho'ida, byudjet ajratmalarini va ssudalarini ajratish paytida, ajratilayotgan byudjet mablag'larning rejaviy ko'rsatkichlarga muvofiqligini aniqlashda amalga oshiriladi. Nazoratning bu shakli moliyalashtiruvchi organlar tomonidan ajratilgan va sarflanayotgan mablag'larning o'zlashtirib olinishining, suiste'mol qilish

holatlarining oldini oladi, moliyaviy intizomga rioya qilishni, pullik hisob-kitoblarning o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Bunda buxgalteriya xizmatlari faoliyati alohida ahamiyatga ega. Yaxshi yo'lga qo'yilgan joriy nazorat moliyaviy resurslarni iqtisod qilish imkonini beradi.

So'nggi moliyaviy nazorat hisobot davri va byudjet yili tugagandan so'ng amalga oshiriladi. So'nggi nazorat hisobot yilida mablag'larning ishlatilishi, rejaviy ko'rsatkichlarning bajarilishi, daromad va xarajatlar smetasining bajarilishi, byudjet limitlari va normativlariga rioya qilinganligi, buxgalteriya hisobi hamda moliyaviy hisobotlarni va yakuniy moliyaviy natijalarni tahlil va taftish qilish asosida o'tkaziladi. Ko'p hollarda so'nggi nazorat natijalari keyingi moliyaviy yil yoki davr uchun dastlabki nazoratga zamin yaratadi.

Davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimi takomillashtirilishi bilan dastlabki va joriy moliyaviy nazoratni amalga oshirish Moliya vazirligi bilan bir qatorda, g'aznachilik organlariga ham yuklatiladi. Yakuniy nazorat Moliya vazirligining Nazorat-taftish bosh boshqarmasi va uning hududiy boshqarma va bo'limlari hamda boshqa vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Dastlabki va joriy moliyaviy nazoratni o'tkazish byudjet mablag'lari oluvchilari majburiyatlarini hisobga olishni taqozo etadi.

Majburiyat - bu odatda yozma ravishda rasmiylashtirilgan, so'zsiz bajarilishi talab qilinuvchi va'da demakdir. Iqtisodiy mazmuniga ko'ra majburiyat fuqarolik huquqiy munosabati bo'lib, ma'lum bir shaxs (qarzdor) boshqa bir shaxs (kreditor) manfaati hisobiga ma'lum bir harakatlarni amalga oshirishi, ya'ni: mol-mulkni berish, ish bajarish, xizmat ko'rsatish, pul to'lash yoki ma'lum harakatlardan voz kechish va boshqa shu kabilarni amalga oshirilishini anglatadi .

Byudjetni ijro etish tizimida esa majburiyatlarni qabul qilish - bu byudjet tashkiloti tomonidan smeta xarajatlarida ko'zda tutilgan mablag'lar doirasida kelajakda moliyaviy xarajatlarni amalga oshirish harakatidir.

Majburiyat me'yoriy-huquqiy xujjatlarga asosan majburiyat qabul qilish huquqiga ega bo'lgan shaxs tomonidan qabul qilinadi. Qabul qilinadigan

majburiyatlar summasi tasdiqlangan byudjet mablag'lari me'yoridan oshib ketmasligi lozim.

Uchinchi bob bo'yicha hulosalar.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat byudjetining g'aznachilik tizimida mahalliy byudjetlar xarajatlarining samarali ijrosini ta'minlashni ham nazari ham amaliy tadqiq qilishda davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimida xorijiy mamlakatlar tajribalaridan foydalanish imkoniyatlarini o'rganganimizda Avstraliyada vazirlik maqomiga ega bo'lgan va to'g'ridan-to'g'ri hukumatga bo'ysinadigan G'aznachilik departamenti mavjud bo'lib, uning asosiy vazifalaridan biri tushumlarni yig'ishdan iborat hisoblanadi. Frantsiyada esa g'aznachilik funktsiyalari Davlat G'aznasi va Davlatning hisob-kitob yuritish bosh derektsiyasi o'rtasida bo'lingan bo'lib, har ikkala tashkilot yuqori tashkilotlarning ikkinchi pog'onasi hisoblanadi: Davlat G'aznasi Moliya Vazirligining, Davlatning hisob-kitob yuritish bosh derektsiyasi byudjet vazirligining tarkibiga kiradi. Osiyo davlatlaridan Yaponiyada davlat moliyasini boshqarish eng rivojlangan bo'lib, unda asosiy o'rinni Moliya vazirligi egallaydi. AQShda esa g'aznachilik to'g'ridan-to'g'ri Prezidentga bo'ysunadi va keng doiradagi iqtisodiy va moliyaviy funktsiyalarni bajaradi.

Hozirgi kunda Respublikaning barcha hududlarida g'aznachilikning ikkita elementi joriy qilingan:

- shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish;
- to'lovlarning amalga oshirilishini nazoratini ta'minlash.

G'aznachilik tadbiriq etilishining ijobiy natijalaridan biri sifatida biz shartnoma va hisob-fakturalarni ro'yxatdan o'tkazish tartibini ko'rishimiz mumkin.

- Shartnomalarning xarajatlar smetasiga mutanosibligi ta'minlandi va kreditor qarzdorlik qat'iy nazorat ostiga olinadi.

- Maqsadsiz xarajatlarga barham berildi va byudjet mablag'larining faqat xarajatlar smetasida ko'zda tutilgan maqsadlarga yo'naltirilishi ta'minlanadi.

- Shartnomalarda narxlarning oshirib ko'rsatilishining oldi olindi va ularning o'rnatilgan me'yoriy talablarga javob berishi ta'minlanadi

- Byudjet mablag'larini ishlatish ustidan dastlabki va joriy nazorat o'rnatiladi.

Yaqin kelajakda mahalliy budjetlar xarajatlarini ijro etishda g'aznachilik tizimining roli ortib boradi. Budjet tizimini yanada takomillashtirish uchun, davlat moliyasini boshqarish uchun loyiq bo'lgan axborot tizimini ishlab chiqilishi kerak bo'ladi.

Davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini saradorligini ta'minlash yo'nalishlarini ko'rib chiqqanimizda, g'aznachilikning tizimining modullarini kelgusida takomillashtirish yo'nalishlari, asosan, axborot tizimining rivojlanishi, moliyaviy rejalashtirish va pullarni boshqarish usullarini takomillashtirish bilan bog'liq bo'ladi. Ya'ni, ushbu sohadagi fan-texnika taraqqiyoti hamda ijtimoiy joyalarni rivojlanishi bilan birgalikda yuksalib boraveradi. Bundan tashqari, g'aznachilikning tizimida boshlang'ich pog'onalarda hisob-kitob kassa usuli bilan amalga oshirilsa, kelgusida g'aznachilikning tizimida hisob-kitob ishlari hisoblash usuliga o'tkazilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimini takomillashtirishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- davlat byudjeti mablag'larini samarali boshqarish;
- byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanish ustidan nazoratni yanada kuchaytirish;
- davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobotlar sifatini oshirish va ularni tayyorlash muddatlarini qisqartirish.

Xulosa

Respublikada davlat moliyasini isloh qilish dasturi xarajatlar va moliyalarni boshqarishni samarasini oshirish, umumiy pul-kredit intizomini mustahkamlash va ajratmalarni oldingi vazifalarni nazarda tutgan holda taqsimlash, byudjet ijrosi va byudjet nazoratini samarali ta'minlash, uning' tiniqligini oshirish va davlat mablag'larini ishlatganligi uchun hisobotni takomillashtirishga yo'naltiriladi. Mazkur maqsadlarga erishish uchun byudjet ijrosi va uni tayyorlashni takomillashtirish, shu jumladan g'aznachilik tizimini joriy qilish va uni barcha zaruriy jixozlar, axborot texnologiyalari bilan ta'minlash ishlarini amalga oshiriladi.

G'aznachilik tomonidan ijro etiladigan byudjet xarajatlari iqtisodiy guruhlashning har bir bosqichi bo'yicha aniq belgilab berilishi lozim. Byud jet sifat jihatdan mana shunday mukammal ishlab chiqilganda va unda baxsli holatlar va e'tirozga asos bo'lmaganda, byudjet mablag'larining noto'g'ri foydalanilishini oldini olish oson bo'ladi.

G'aznachilik tizimi davlat moliyasini samarali boshqarish uchun ham, undan oqilona foydalanilishi ustidan qat'iy nazoratni ta'minlash uchun ham zamin yaratadi. Buni esa quyidagicha izohlash mumkin: birinchidan, g'aznachilik davlat byudjetining ijrosi jarayonida yuzaga keladigan daromad va xarajatlarni o'z hisobvaraqlarida jamlaydi. Ikkita qarama-qarshi moliyaviy oqimlarning bitta organda jamlanishi ushbu jarayonni sezilarli darajada tezlashtiradi.

G'aznachilikni joriy etish mahalliy byudjetlar xarajatlar qismida byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishining nazoratini kuchaytirish va pul oqimlarini samarali boshqarish imkonini beradi. Mazkur tizimni joriy etish bilan mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosini kuzatish, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda qulaylik yaratish, byudjet mablag'larini maqsadsiz sarflanishdan himoyalash va byudjetni rivojlantirish va prognozlashtirish sifatini oshirish mumkin bo'ldi.

Nazariy jihatdan qaralganda g'aznachilik tizimi joriy etilishi quyidagi ijobiy natijalarga erishishga imkoniyat beradi: mahalliy byudjetlar moliyaviy resurslarining real hajmini va uning istiqbol ko'rsatkichlarini doimiy nazorat qilish,

mahalliy moliyaning holati to'g'risidagi tezkor va muntazam ravishda axborotlarni yig'ish, ishlov berish va tahlil qilish, mahalliy byudjetlar xarajatlari kassa ijrosini har kungi aniqlashtirilgan monitoringini o'tkazish, tasdiqlangan byudjet mablag'lari doirasida byudjet tashkilotlarining tovarlar va xizmatlar yetkazib beruvchilar oldidagi majburiyatlarini qabul qilish bosqichida dastlabki nazoratni amalga oshirish, moliya organlari tomonidan mahalliy byudjetlar xarajatlarini o'z vaqtida va manzilli moliyalashtirish bilan mahalliy byudjet mablag'larini bosh taqsimlovchilari tomonidan sui'ste'mol qilish va noto'g'ri ishlatishning oldini olish maqsadida joriy nazorat olib borish, byudjet tashkilotlari majburiyatlarni olgandan keyin pul mablag'larini g'aznachilik hisob raqamidan to'g'ridan-to'g'ri tovar yetkazib beruvchilar hisob raqamiga o'tkazish orqali pul oqimlari harakatini tezlashtirish o'z vaqtida to'lovni amalga oshirish orqali ta'minotchilarni moliyaviy imkoniyatlarini yaxshilash, g'aznachilik tizimining bir pog'onasidan ikkinchi pog'onasiga pul mablag'lari o'tkazishni tezlashtirish orqali byudjet mablag'larini tezkor harakat qilinishini ta'minladi.

Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari o'z tarkibiga maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, fan, ijtimoiy ta'minot, aholi uchun ijtimoiy ahamiyat kasb etgan xizmatlar baholaridagi farqlarni byudjetdan qoplash va oilalarga ijtimoiy nafaqalarni oladi. Davlatning ijtimoiy funktsiyasini o'zida aks ettirib, bu guruhdagi byudjetning xarajatlari xalq ta'limi tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga, fan va madaniyatni moliyalashtirishga, aholining tibbiy xizmatga bo'lgan talabini (ehtiyojini) qondirishga, ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minotni amalga oshirishga keng yo'l ochib beradi.

Tahlillarimiz natijasida shu narsaga amin bo'ldikki, byudjetni ijro etilishida g'aznachilik tizimiga o'tish byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanishning, harajatlarning aniq vaqt davomida va tezkorlik bilan amalga oshirish hamda mablaglar nazorati ta'minlanmoqda. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar yanada chuqurlashtirilayotgan davrda, ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida bo'lgani kabi moliya, byudjet ijrosi tizimida ham olib borilgan iqtisodiy islohotlar o'z natijasini bermoqda.

Biz tadqiq olib borgan mahalliy byudjet xarajatlari ijrosida rejaga nisbatan kassa xarajatlari 94-99 foizga bajarilganligini guvohi bo'ldik. Bu ko'rsatkichlar orqali mahalliy byudjet xarajatlaridan maqsadli va manzilli foydalanishda g'aznachilikning ahamiyatini ko'rishimiz mumkin. umumiy qilib olinganda yildan yilga ijobiy tarafga o'zgarib bormoqda va joriy va boshlang'ich nazoratlar ijobiy yo'lga qo'yilgan.

Amalda yuzaga kelgan byudjetlararo tartibga solish mexanizmini juda keskin o'zgartirish maqsadga muvofiq emas. Respublika byudjeti g'azna ijrosi bilan mahalliy byudjetlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni takomillashtirish bo'yicha quyidagi tavsiyalarni berishni lozim deb hisoblaymiz:

1. Yuqoridagilardan kelib chiqib, davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimini takomillashtirishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- davlat byudjeti mablag'larini samarali boshqarish;
- byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanish ustidan nazoratni yanada kuchaytirish;
- davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobotlar sifatini oshirish va ularni tayyorlash muddatlarini qisqartirish.

2. Mahalliy xokimiyat organlarining rejadan ortiqcha soliqlar tushumini yig'uvchanligini rag'batlantirish maqsadida tartibga soluvchi soliqlar bo'yicha belgilangan rejadan ortiqcha tushumlarning 50 foizi mahalliy byudjetlar ihtiyorida qoldirilishi maqsadga muvofiqdir.

3. Mahalliy byudjetlar daromadlar tarkibida mahalliy soliqlar ulushini oshirish choralari ko'rilishi maqsadga muvofiqdir, bu yo'nalishda mulk solig'idan tushumlarning real oshirish yo'llaridan biri aholining uy joylarini hozirgi daromadidan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich BTI idoralari tomonidan bozor narxida baholashni o'tkazishdan olinishi mahalliy byudjet daromadini oshiradi

4. Mahalliy byudjetlarni tayyorlash jarayonlarini isloh qilishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy vazifalarni tarmoqlar miqyosida bosqichma-bosqich kengaytirish. Bizning fikrimizcha, avvalo byudjet mablag'larining maqsadlari va

ulardan kutiladigan samaradorlik (natijaviylik) ko'rsatkichlarining real bahosi mavjud bo'lgan sharoitdagina g'aznachilik tomonidan nazorat qilinadigan va ijro etiladigan davlatning moliyaviy resurslarini oqilona boshqarish imkoniyatlari yanada kengayadi;

5. Respublika byudjetidan dotatsiya oluvchi g'azna byudjetlarga markazlashtirilgan xarajatlarni (birinchi sinf o'quvchilari uchun o'quv qurollari, kam ta'minlangan oilalar bolalari uchun qishki kiyimlar, kitoblar, kompyuterlar va jihozlar) maqsadli subvensiyalar ko'rinishida berish lozim.

6. Turli hududlarga moliyaviy yordam ko'rsatishning miqdorlarini aniqlashda va taqsimlashda yagona uslubiyat va me'zonlar ishlab chiqilishi lozim.

7. Byudjet tashkilotlarida g'aznachilik ijrosining buxgalteriya xisobini tashkil qilishda kompyuter texnologiyalarining etishmasligini oldini olish yordamida tashkilotning moddiy texnika bazasini xalqaro standartlarda yangilash kerak.

8. Komyuter dasturidagi g'aznachilik operatsiyalari bilan bog'liq ma'lumotlar va ko'rsatkichlar boshqarmaning g'aznachilik operatsiyalarini amalga oshiruvchi bo'linmalardan g'aznachilik operatsiyalari bilan bog'liq har qanday turdagi va ko'rinishdagi moliyaviy xujjatlarni ma'lumotlar va ko'rsatkichlar bilan taqqoslash.

Shunday qilib, davlat byudjeti ijro etishda g'aznachilik tizimi foydalanish va albatta uning istiqbolini to'g'ri belgilash byudjet moliyaviy resurslardan samarali foydalanishga olib keladi. Bizning fikrimizcha, davlat mablaglari hisob-kitobini yuritishda byudjet vazirliklariga bo'ysunuvchi byudjet birliklari operatsiyalari hisobga olinsa kompleks xarakterga ega bo'ladi. Shunda Moliya vazirligi G'aznachiligi bu tashkilotlarning hisob-kitoblarini yuritilishiga to'liq javobgar bo'ladi.

Ushbu ko'rsatib o'tilgan amaliy tavsiyalar g'aznachilik tizimi sharoitida mahalliy byudjetlar xarajatlar ijrosi samaradorligini oshirish bo'yicha ijobiy natijalar beradi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasining qonunlari, Prezident Farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari.

- 1.1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2012.
- 1.2. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. 2007 yil 25 dekabr.
- 1.3. O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi, 2013 yil 26 dekabr.
- 1.4. O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni 1998 yil 29 avgust.
- 1.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagi "Davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-594-sonli Qarori.
- 1.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 1 noyabrdagi "Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida "Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi № PQ-721-sonli Qarori.
- 1.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2013 yil 25 dekabrdagi 2099-sonli qarori.
- 1.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2012 yil 25 dekabrdagi 1887-sonli qarori.
- 1.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2011 yil 30 dekabrdagi 1675-sonli qarori.
- 1.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 22 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2010 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi № PQ-1245 – sonli Qarori.

1.11.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 dekabrda
“O'zbekiston Respublikasining 2009 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari
prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida”gi № PP-1024 – sonli Qarori.

1.12.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 12 dekabrda
“O'zbekiston Respublikasining 2008 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va
Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida”gi PQ-744-sonli Qarori.

1.13.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 18 dekabrda
“O'zbekiston Respublikasining 2007 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar
prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida”gi № PQ-532 sonli Qarori.

1.14.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 27 dekabrda
“O'zbekiston Respublikasining 2006 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari
prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida”gi № PP-244-sonli Qarori

1.15.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 26 aprelda
144-sonli “Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasini amalga oshirishga
tayyorlanish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori.

1.16.O'zbekiston Respublikasining Prezidentining “Osiyo taraqqiyot banki
ishtirokida «Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish» loyihasini amalga
oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2007 yil 1-noyabrda 721-sonli qarori

1.17.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 28
dekabrda “O'zbekiston Respublikasining 2005 yilgi Davlat byudjeti parametrlari
to'g'risida”gi 610-sonli Qarori.

1.18.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 20 martda
“O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi to'g'risidagi
Nizomni tasdiqlash haqida”gi № 53-son Qarori.

1.19.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 fevralda PQ-1475-
sonli «Davlat xaridlarning tizimini optimallashtirish va ularga kichik biznes
subyektlarini birlashtirish to'g'risida»gi qarori.

1.20.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 24
avgustda 241-sonli «Byudjetdan mablag' oluvchilarning xarid qilishda 15

foizdan ortiq miqdorda avans to'lashi mumkin bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning turlari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori

1.21.O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasining 2013 yil 14 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi Davlat byudjeti to'g'risida"gi 770-II sonli qarori.

II. Prezident asarlari.

2.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi" Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. «Xalq so'zi» gazetasi, 2014 yil 18 yanvar

2.2. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi. 2013 yil 19 yanvar №13 (5687)- soni.

2.3. Islom Karimov. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. T.: O'zbekiston, 2012. – 36 b.

2.4. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zR Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. – T.: O'zbekiston, 2011. - 48 b.

2.5. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir – T.: "O'zbekiston", 2010. 80 bet.

2.6. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.-T.: «O'zbekiston», 2009yil. 56 bet.

2.7. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. // Xalq so'zi, 2010 yil 28 yanvar.

2.8. Karimov I.A. O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. // Xalq so'zi, 2009 yil 6 dekabr.

2.9. Karimov I. A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. Xalq so'zi. 2002 yil 30 avgust

2.10. Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash – barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. “Halq so'zi” gazetasi №28(4438)- soni. 9 fevral, 2008 yil

III. Sohaga oid me'yoriy hujjatlar.

3.1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2009 yil 4 avgustdagi 69-son buyrug'i bilan tasdiqlangan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 16 sentyabrda № 2007-son bilan ro'yxatga olingan). “Davlat byudjetining g'azna ijrosi Qoidalarini”.

3.2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2010 yil 2 apreldagi № 26-son buyrug'i bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 26 aprelda № 2101-son bilan ro'yxatga olingan “O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining g'azna ijrosi buxgalteriya hisobining Yagona schetlar rejasi”.

3.3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2008 yil 16 maydagi “O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining daromadlari tasnifi, xarajatlarning funktsional va iqtisodiy tasnifi hamda mablag'lar manbalari va byudjet darajalari tasnifi”ni tasdiqlash to'g'risida”gi № 80-sonli bug'rug'i.

3.4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2008 yil 23 iyuldagi № 80-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan “Davlat byudjetining g'azna ijrosi buxgalteriya hisobi bo'yicha Qoidalar”.

3.5. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti g'azna ijrosi. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'plami. T.: 2007 yil.

3.6. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2007 yil 30 avgustdagi № 119-son bilan ro'yxatga olingan "Davlat byudjeti g'azna ijrosi bo'yicha funktsiyalarning cheralanishi to'g'risida Nizom".

3.7. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2007 yil 1 iyundagi 77-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha G'aznachilik boshqarmalari to'g'risidagi Nizom", "G'aznachilikning tumanlar (shaharlar)bo'yicha bo'linmalari haqidagi Nizom"

3.8. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2007 yil 17 oktyabrdagi № 93-son buyrug'i bilan tasdiqlangan (Adliya vazirligida 2007 yil 5 dekabrda № 1746-son bilan ro'yxatga olingan) "Byudjetdan mablag' oluvchilarning shaxsiy hisobvaraqlarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida va uning hududiy bo'linmalarida yuritish Qoidalari".

3.9. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2005 yil 5 maydagi 63-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan (Adliya vazirligidan 2005 yil 21 mayda 1475-son bilan ro'yxatdan o'tgan) "Moliya organlarida byudjetdan mablag' oluvchilar bilan tovar (ishlar, xizmatlar) etkazib beruvchilar o'rtasidagi shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish va ularning xarajatlar to'lovini nazorat qilish tartibi haqida"gi Vaqtinchalik Nizom

IV. Asosiy adabiyotlar.

4.1. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik/Toshkent moliya instituti.- Toshkent: "Noshir", 2012. 712-bet.

4.2. Srojiddinova Z.X. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi. Darslik. T.: Incom.uz MChJ- 2010. - 500 b.

4.3. T. Eshnazarov. G'aznachilik tizimi munosabatlari. – T.: "Fan", 2008.

4.4. Tuxliev B.K., Alieva L.K., Aliev S.K. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi: O'quv qo'llanma – T.: TDIU., 2007

4.5. Принципи организации казначейского исполнения Государственного бюджета Республики Узбекистан. Под ред. Д. Кучкарова, «Мир экономики и права», 2005 й.

4.6. G.A. Qosimova. G'aznachilik faoliyatini tashkil qilish (o'quv qo'llanma). T.: Iqtisod -moliya, 2005.

4.7. Акперов И.Г. и др. Казначейская система исполнения бюджета в Российской Федерации. М.: Финансы и статистика, 2002.

4.8. Иванова Н.Т., Маковник Т.Д. Казначейская система исполнение бюджетов. – СПб.: Питер, 2001.

4.9. Нестеренко Т.Г. Казначейская система как инструмент эффективного управления государственными финансами. Финансы. №3, 2001.

4.10. Malikov T., Xaydarov N. Byudjet (tizimi, tuzilmasi, jarayoni). O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya, TMI – 2008, 98 b.

4.11. Ter-Minasyan T., Martines-Mindes P. I Parente P. P. Sozdanie kaznacheystva v stranax s perexodnoy ekonomikoy. MVF. Vashington. 2005

V. Qo'shimcha adabiyotlar (shu jumladan, ilmiy maqolalar)

5.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish–ustuvor maqsadimizdir» hamda “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. Tuzuvchilar: B.Yu.Xodiev, A.Sh.Bekmurodov, U.V.G'afurov – T.: Iqtisodiyot, 2010.-331 b.

5.2. Xodiev B.Yu., Bekmurodov A.Sh., G'ofurov U., Tuxliev B.K. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009. – 120 b.

5.3. Современное состояние и перспективы развития государственных финансов в Республике Узбекистан”, Б.Ашрафханов, Презентация, Т.: 2008 г.

5.4. Семинар «Опыт применения среднесрочного бюджетного планирования и БОР в Словакии: уроки и выводы для Узбекистана» Учебные материалы. Ташкент, Узбекистан. 20 февраля 2008 года.

5.5. Abruev U. Davlat byudjetining g'azna ijrosi xalqaro tajribasi va g'azna ijrosining O'zbekistondagi o'ziga xos xususiyatlari. "Soliq solish va buxgalteriya hisobi" №11 (29) son, 2008 yil, 21 bet

5.6. V. Anoshkina. "O'zbekistonda byudjet islohoti: hozirgi davrdagi maqsadlar va yo'nalishlar." "Soliq solish va buxgalteriya hisobi", 2008 y. № 3(21).

5.7. Тренинг «Бюджетирование, ориентированное на результат – страновые примеры и применение в отдельных отраслях». Учебные материалы. Ташкент, Узбекистан. 1-4 мая 2008 года.

5.8. U.Abruev, Davlat byudjetining g'azna ijrosi halqaro tajribasi va g'azna ijrosining O'zbekistondagi o'ziga xos xususiyatlari. Soliq solish va buxgalteriya hisobi, 2008 y. № 11(29), 21-26-betlar.

5.9. U.Abruev. Ta'minotchi, byudjet tashkiloti va g'aznachilik: davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonidagi o'zaro munosabat. Soliq solish va buxgalteriya hisobi, 2008 y. № 10 (28), 29-31-betlar.

5.10.U.Abruev. O'zbekistonda davlat byudjeti g'azna ijrosining asosiy maqsadlari va o'ziga xosligi. Soliq solish va buxgalteriya hisobi, 2008 y. № 8 (26), 21-26-betlar.

5.11.Viktoriya Anoshkina "O'zbekistonda byudjet islohoti: hozirgi davrdagi maqsadlar va yo'nalishlar" "Soliq solish va buxgalteriya hisobi". №3(21), 2008 yil. 20-24-betlar.

5.12.Davlat byudjetining g'azna ijrosi va uning afzalliklari". "G'aznachilik tizimida byudjet ijrosi" kursi ma'lumotlari. T.: 2007 yil.

5.13.H.Musaev. "G'aznachilik tizimi mohiyati va uning samaradorligini oshirish yo'llari." "Bozor, pul va kredit", 2007 yil, dekabr, № 12.

5.14.T.Eshnazarov. "Davlat byudjetining g'azna ijrosi buxgalteriya hisobi." "Bozor, pul va kredit", 2007 yil 10 oktyabr.

5.15.Зарубежный опыт построения казначейской формы исполнения бюджета. Г.Халымбетова, А.Халымбетова. Рынок, деньги и кредит, 4 апрел 2007 г.

5.16.T.Eshnazarov. “G’azna ijrosi jarayonini avtomatlashtirish” “Iqtisod va hayot”,2007y

5.17.T.Eshnazarov. “O’zbekistonda g’aznachilik tizimi.” “Jamiyat va boshqaruv”, 2007 y. №3.

5.18.T.Eshnazarov. “Davlat moliyasi islohi: Frantsiya tajribasi” “Iqtisod va hayot”, 2007 y.

5.19.G.Qosimova. “G’aznachilik tizimidagi yangiliklar.” “Jamiyat va boshqaruv”, 2007 yil №2.

5.20.T.Nishonboev. T.Qo’chqorov. “G’aznachilikda axborot texnologiyalarini qo’llash.” 2007 yil, №2.

5.21.M.Haydarov, T.Eshnazarov. “G’aznachilik tizimining ahamiyati.” “Soliq solish va buxgalteriya hisobi”, 2007 y. №1(7).

5.22.G.Qosimova. “G’aznachilik tizimida byujet majburiyatlari va to’lovlarini boshqarish moduli.” “Bozor, pul va kredit”, 2006 yil, sentyabr, № 9.

5.23.H.Jalolov. “G’aznachilikni amaliyotga tatbiq etish.” “Bozor, pul va kredit”, 2006 yil, noyabr, № 11.

5.24.Намозов. О роли казначейской системы. «Рынок, деньги и кредит», №3-4, март-апрель, 2007

5.25.Кучкаров Д. и др. Местные бюджеты через призмы проблем.// Экономическое обозрение. - Ташкент: 2004.- № 6 - 4 с.

VI. Davriy nashrlar, statistik hisobotlar va to’plamlar.

6.1. Davlat moliyasini isloh qilishning dolzarb muommalari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallar. T.: O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi moliya organlari va byudjet tashkilotlarining moliya-hisob bo’linmalari xodimlarini tayrlash va qayta tayrlash O’quv markazi, 2009 yil 2 dekabr.

6.2. Iqtisodiyotni liberallashtirish va va mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida davlat moliyasini isloh qilish yo'nalishlari. Respublika ilmiy amaliy anjumani materiallari.-T.:TDIU, 2007 yil 14-15- dekabr.

6.3. «Xalq so'zi» gazetasi

6.4. "O'zbekiston iqtisodiyoti" jurnali

6.5. O'zbekiston respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligining 2010-2014 yilgi amaliy materiallari

6.6. Norma. Informatsionnaya pravovaya sistema. 2010 g.

6.7. Практика государственного управления во Франции: Государственное Казначейства. Сборник документов Франко-Российского сотрудничества №8 стр. 11.

6.8. Chilonzor tumani moliya bo'limi hisobot materiallari

6.9. Chilonzor tumani g'aznachilik bo'limi hisobot materiallari

VII. Internet saytlari.

7.1. <http://www.mf.uz>

7.2. <http://www.tresure.uz>

7.3. <http://www.lex.uz>.

7.4. <http://www.stat.uz>

7.5. <http://www.publicfinance.uz>.

**Davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik mexanizmlarini
bosqichma-bosqich joriy etish grafigi³⁰**

Yillar	Amalga oshirilgan tadbirlar	Huquqiy asosi
2002 yil	“Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasi” ustida tadbirlar amalga oshirildi.	O'zR VMning 26.04.2002 yildagi № 144 – sonli Qarori
2004 yil	O'zbekiston Respublikasining “Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida”gi Qonuni qabul qilindi.	26.08.2004 yildagi O'RQ № 664-II
2005 yil	1) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat byudjeti g'azna ijrosini joriy etish va metodologiya Boshqarmasi tashkil etildi. 2) Samarqand viloyatida g'aznachilik tizimining ba'zi elementlari eksperiment tarzida joriy etildi	1) O'zR VMning 28.12.2004 yildagi № 610-sonli Qarori; 2) O'zR MVning 6.04.2005 yildagi № 51-sonli buyrug'i
2006 yil	Davlat byudjetining g'azna ijrosi mexanizmlari 1) Qoraqalpog'iston Respublikasi; 2) Buxoro viloyati; 3) Namangan viloyati; 4) Surxondaryo viloyati; 5) Sirdaryo viloyati; 6) Xorazm viloyati va 7) Toshkent shahrida joriy etildi.	O'zR Prezidentining 27.12.2005 yildagi № PP-244-sonli Qarori
2007 yil	I. Davlat byudjetining g'azna ijrosi mexanizmlari 1) Andijon viloyati; 2) Jizzax viloyati; 3) Qashqadaryo viloyati; 4) Navoiy viloyati; 5) Toshkent viloyati; 6) Farg'ona viloyatlarida joylashgan byudjet tashkilotlari uchun bosqichma-bosqich joriy etildi. II. Yuqorida tilga olingan Boshqarma o'rnida O'zR MVning G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi.	I. O'zR Prezidentining 18.12.2006 yildagi №PP-532-sonli Qarori II. O'zR Prezidentining 28.02.2007 yildagi № 594-sonli Qarori
2009 yil	I. Davlat maqsadli va boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalarning daromad va xarajatlari g'aznachilik mexanizmi bilan qamrab olindi; II. O'zR ga kirib keladigan barcha turdagi gumanitar yordam va texnik ko'maklashish mablag'larini to'liq va tizimli hisobga olish yo'lga qo'yildi; III. Buxoro va Namangan viloyatlarida byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha daromad va xarajatlarini g'aznachilik tizimi bilan qamrab olish bo'yicha eksperiment o'tkazildi; IV. Respublikaning alohida hududlarida bojxona organlarini g'aznachilik mexanizmi bilan qamrab olish bo'yicha eksperiment boshlandi.	I. O'zR Prezidentining 29.12.2008 yildagi № PQ-1024-sonli Qarori; II. O'zR Prezidentining 24.11.2008 yildagi № PQ-1005-sonli Qarori va boshqalar.
2010 yil	Respublikaning barcha hududlarida O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona qo'mitasining daromadlar va xarajatlar bo'yicha depozit hisobvaraqlarini va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'larini davlat byudjetining g'azna ijrosi mexanizmi bilan to'liq qamrab olish ko'zda tutilgan.	O'zR Prezidentining 22.12.2009 yildagi № PQ-1245-sonli Qarori
2011 yil	I. 2011 yil 1 yanvardan O'zbekiston Respublikasining yangi byudjet tasnifini amalga kiritildi II. 2011 yil 1 yanvardan byudjet tashkilotlarida yangi buxgalteriya hisobi amalga kiritildi III. Davlat xaridlarining tizimini optimallashtirildi va ularga	I. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2010 yil 20 avgustdagi 65 sonli bo'yug'i II. O'zbekiston

³⁰ Talaba tomonidan shakllantirildi

Yillar	Amalga oshirilgan tadbirlar	Huquqiy asosi
	kichik biznes subyektlarini biriktirildi IV. Byudjetdan mablag' oluvchilarning xarid qilishda 15 foizdan ortiq miqdorda avans to'lashi mumkin bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning turlari ro'yxati tasdiqlandi	Respublikasi Moliya vazirining 2010 yil 17 dekabrda 105-sonli bo'yruqi III. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 fevraldagi PQ-1475-sonli «Davlat xaridlarning tizimini optimallashtirish va ularga kichik biznes subyektlarini biriktirish to'g'risida»gi qarori IV. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 24 avgustdagi 241-sonli «Byudjetdan mablag' oluvchilarning xarid qilishda 15 foizdan ortiq miqdorda avans to'lashi mumkin bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning turlari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori
2012 yil	Davlat byudjeti, byudjetdan tashqari Davlat maqsadli va boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalar byudjetlari g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi amalga kiritildi.	O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2011 yil 14 yanvardagi bo'yruqi
2013 yil	“O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning hududiy bo'linmalarida byudjetdan mablag' oluvchilarning shaxsiy g'azna hisobvaraqlarini ochish, yopish va yuritish” qoidalari amalga kiritildi	O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2012 yil 17 dekabrda 86-sonli bo'yruqi
2014 yil	2014 yil 1 yanvardan yangi Byudjet kodeksi amalga kiritildi	O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksini tasdiqlash to'g'risida”gi O'RQ-360 sonli Qonuni, 2013 yil 26 dekabr

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy byudjetlarining 2011-2013 yildagi xarajatlar hajmi haqida ma'lumot

№	Mintaqalarning nomlari	2011 yil		2012 yil		2013 yil	
		mln.so'm	%	mln.so'm	%	mln.so'm	%
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	583753,400	6,4%	761796,800	6,5%	939 840,2	6,6%
2	Andijon viloyati	787854,000	8,6%	983326,100	8,4%	1 178 798,2	8,3%
3	Buxoro viloyati	534746,800	5,8%	669375,000	5,7%	804 003,2	5,7%
4	Jizzax viloyati	372608,900	4,1%	491209,200	4,2%	609 809,5	4,3%
5	Qashqadaryo viloyati	836524,400	9,1%	1041089,300	8,9%	1 245 654,2	8,8%
6	Navoiy viloyati	371411,900	4,0%	448805,900	3,8%	526 199,9	3,7%
7	Namangan viloyati	733448,200	8,0%	910515,000	7,8%	1 087 581,8	7,7%
8	Samarqand viloyati	1092287,700	11,9%	1296442,600	11,1%	1 500 597,5	10,6%
9	Surxandaryo viloyati	708324,000	7,7%	889708,000	7,6%	1 071 092,0	7,6%
10	Sirdaryo viloyati	265151,400	2,9%	343165,400	2,9%	421 179,4	3,0%
11	Toshkent viloyati	748461,400	8,1%	969424,600	8,3%	1 190 387,8	8,4%
12	Farg'ona viloyati	976807,900	10,6%	1248752,500	10,7%	1 520 697,1	10,7%
13	Xorazm viloyati	496890,900	5,4%	639106,000	5,5%	781 321,1	5,5%
14	Toshkent shahri	684081,500	7,4%	996339,000	8,5%	1 308 596,5	9,2%
	Jami	9 192 352,4	100,0%	11 689 055,4	100,0%	14 185 758,4	100,0%

Manb a: O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi ma'lumotlarisida tayyorlandi

3-ilova

**Chilonzor tuman g'aznachilik bo'linmasi mahalliy byudjetidan mablag' oluvchilarning xarajatlarni to'lab berish
bo'yicha
M A ' L U M O T**

(ming so'm)

Sana	To'lab berilgan to'lov topshiriqnomalar		Qaytarilgan to'lov topshiriqnomalari														
			Jami		Shundan												
			Soni	Summasi	Shartnomasiz taqdim qilingan to'lov topshiriqnomalar i		Shartnoma sumasidan ortiqcha taqdim qilingan to'lovlar			Hisob faktura summasidan ortiqcha taqdim qilingan to'lovlar			Smetadan ortiqcha taqdim qilingan to'lovlar			Boshqalar	
	Soni	Summasi			Soni	Summasi	Soni	Summasi	oshgan summa miqdori	Soni	Summasi	oshgan summa miqdori	Soni	Summasi	oshgan summa miqdori	Soni	Summasi
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	20	21
2013 y	19296	40326361	631	1811469	53	72204,5	127	340672	183218	79	246726	120906	126	683650	251356	246	468217
2014 y 1- chorak	19656	42962295	170	190185	11	10356	31	24265	5129	38	28769	7562	34	51468,2	21877	56	75327

Manba: Chilonzor tuman G'aznachilik bo'linmasi hisobotlari asosida tayyorlandi

Chilonzor tumani mahalliy byudjeti bo'yicha mahalliy byudjetdan mablag' oluvchilarning shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha M A ' L U M O T

mln.so'm

№	Xudud nomi	Mahalliy b-tan mablag' oluvchilar soni	Mahalliy byudjetdan mablag' oluvchilarga ochilgan shaxsiy hisob raqamlar soni	Byudjetdan tashkari mablag'lar uchun ochilgan hisob raqamlar soni	Byudjetdan tashqari (4001)(4999) va (4003)(4011)lik shaxsiy hisob raqamlar	Ro'yxatga olingan		Qaytarilgan shartnomalar										
						Soni	Summasi	Jami		Shundan:								
								Soni	Summasi	maqsadsiz taqdim		Smetadan ortiqcha taqdim qilingan			Xuquqshu -nos xulosasi		boshqalar	
										soni	summasi	soni	summasi	oshgan summa miqdori	soni	summasi	soni	summasi
1	Chilonzor	111	122	212	162	4773	29898625	173	6914	37	2145	60	3338	387	14	286	38	758

Manba: Chilonzor tuman G'aznachilik bo'linmasi hisobotlari asosida tayyorlandi

